

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIMI
VAZIRLIGI
ABDULLA QODIRIY NOMIDAGI JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA
INSTITUTI**

MILLIY G'OYA, HUQUQ VA MA'NAVIYAT ASOSLARI KAFEDRASI

“Himoya qilishga ruhsat beraman”

Tarix fakulteti dekani

A. Parдаev

“ _____ ” _____ 2019 yil

5111600- Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'lim yo'nalishi

Bakalavr darajasini olish uchun

**I.A.KARIMOVNING “O'ZBEKISTONNING O'Z ISTIQLOL VA
TARAQQIYOT YO'LI” ASARIDAGI IJTIMOIIY TARAQQIYOT
G'OYALARI VA ULARNING TARIXIIY AHAMIYATI
mavzusida bajarilgan**

BITIRUV MALAKAVIIY ISHI

Bajaruvchi: M. Абдиева

Ilmiy rahbar: B.M. Ochilova

Ishni himoyaga tavsiya etaman

B.M. Ochilova

**BMI Milliy g'oya, huquq va ma'naviyat
asoslari kafedراسi yig'ilishining qarori bilan
(Qaror № ____, ____ . 2019 yil) himoyaga
tavsiya etilgan**

Kafedra mudiri

M. Xoshimxonov

Jizzax-2019

ВМИ А. Қодирӣ номидаги Жиззах Давлат Педагогика Институтининг Тарих факултети “Миллий г’оя, ма’навият асослари ва ҳуқуқ та’лими” кафедрасида bajarilgan.

Taqrizchilar:

Жиззах ДПИ Ижтимоий фанлар
кафедраси катта ўқитувчиси С.Қаримов

Жиззах тумани 20- мактаб
ўқитувчиси Э.Алибоев

Ҳимоя 2019-йилнинг _____soat____да А.Қодирӣ номидаги Жиззах Давлат Педагогика институтининг Тарих факултетида давлат attestatsiya комиссиясининг bakalavr darajasini olish uchun yig’ilishida o’tkaziladi. Manzil: Тарих факултети 406-хона.

Ish bilan А.Қодирӣ номидаги Жиззах Давлат Педагогика институтининг Ахборот Ресурс марказида tanishish mumkin (manzil: Жиззах shahri Sharof Rashidov shoh ko’chasi, 54).

MUNDARIJA

KIRISH

I BOB. I.A.KARIMOVNING “O'ZBEKISTONNING O'Z ISTIQLOL VA TARAQQIYOT YO'LI” ASARINI O'RGANISHNING ZARURIYATI VA AHAMIYATI.

1.1. O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li asarining nazariy konseptual metadologik mohiyati.....

1.2. Ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyoti sharoitida O'zbekistonni rivojlantirishning huquqiy asoslari va ma'naviy tamoyillari.....

II BOB “O'ZBEKISTONNING O'Z ISTIQLOL VA TARAQQIYOT YO'LI” ASARIDAGI BUNYODKOR G'OYALAR VA ULARNING YOSHLAR TARBIYASIGA TA'SIRI.

2.1. “O'zbekiston kelajagi buyuk davlat” g'oyasining iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy va ma'rifiy asoslari va amaliyoti.....

2.2. I.A.Karimov asarining g'oyaviy tarbiyaviy mazmuni va uni o'rganish metodikasi.....

XULOSA

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

KIRISH

Bitiruv malakaviy ishining dolzarbligi. O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining qo'lga kiritilishi tom ma'noda xalqimizning asriy orzularining ushaliishiga va chuqur o'zgarishlar insonlar hayotiga shiddat bilan kirib kelishiga zamin yaratdi. Xalqlarning ozodlik, mustaqillik va baxt-saodatga azaliy intilishi, o'z taqdirini o'zi belgilashga azmu qarori mana shunday o'zgartishlarning harakatga keltiruvchi kuchidir.

O'zbek xalqining ajralmas huquqi - o'z taqdirini o'zi belgilash huquqi ro'yobga chiqarildi. 1991 yilning 31 avgustida O'zbekiston Respublikasining mustaqilligi e'lon qilindi. Muqaddas orzu ushaldi - O'zbekiston tinch, parlament yo'li bilan o'zining haqiqiy davlatchiligiga erishdi. "O'zbekiston – suveren demokratik davlat. Davlatning "O'zbekiston Respublikasi" va "O'zbekiston" degan nomlari bir ma'noni anglatadi"¹ Bu - xalqimizning ko'p asrlik tarixida buyuk voqeadir. "O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi asoslari to'g'risida"gi konstitutsiyaviy qonunda respublikadagi ko'p millatli barcha aholining xohish-irodasi mustahkamlab qo'yildi va umumxalq referendumini buni qattiy tasdiqladi. Bu tarixiy voqea davlatimiz yilnomasiga zarhal harflar bilan yozib qo'yildi.

Mustaqillikni qo'lga kiritganimizdan so'ng, milliy davlatchiligimizni yuksak taraqqiy ettirish, jahon sivilizatsiyasida munosib o'ringa ega bo'lish masalasiga va xalqimizning yillar davomida cheklangan asriy orzularini ushaltirishga alohida e'tibor qaratildi.

Mustaqillikning qo'lga kiritilishi davlat boshqaruvini isloh qilishda ma'lum bir maqsadlarni o'z oldiga qo'ydi. Jamiyatni erkinlashtirish, davlat suvereniteti daxlsizligini har tomonlama kafolatlash asosiy maqsadlardan biriga aylandi. Tom ma'noda jamiyat hayotida mustaqillik asoslarini ta'minlash davlatimiz oldida turgan ustuvor vazifalardan biri sifatida qaraldi.

Mustaqillikning dastlabki davrida davlat hududiy daxlsizligini kafolatlash, milliy boyliklarimizni nazorat va egalik qilishga harakat qilindi. Respublikamiz

¹ O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. -T, O'zbekiston. 2017. –B.4.

mustaqillikning bir yili ichida asrlar davomida o'zga xalqlar tomonidan egalik qilib kelinayotgan milliy boyliklarimizga egalik qilish huquqini qo'lga kiritdi. Mamlakatimizning yer, yer osti boyliklari, avlod-ajdodlarimiz mehnati bilan yaratilgan milliy boyliklarimiz davlatimiz mulki deb e'tirof etildi. Bu esa o'z navbatida jamiyat hayotida erkinlikni ta'minlash bilan birgalikda jamiyat taraqqiyotini belgilashda muhim omilga aylandi. Mazkur o'zgarishlar natijasida O'zbekiston Respublikasi hududiy yaxlitligi ta'minlandi.

O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining xalqaro maydonda tan olinishi – jamiyatda huquqiy demokratik davlat qurishga zamin yaratdi. Xususan mamlakatimizda davlat va xalq munosabatlarini tartibga solishda dasturulamal bo'lgan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining qabul qilinishi jamiyat hayotida demokratik qadriyatlarning qaror topishiga asos bo'ldi.

O'zbekiston Respublikasida ma'muriy buyruqbozlik tizimi barham topdi, hokimiyatlar bo'linish prinsipi asosida hokimiyat organlarining vazifalari aniqlashtirildi, davlat boshqaruvida jahon demokratiyasi andozalari hayotga tadbiiq etildi. Xususan mamlakatimizda prezidentlik instituti joriy etildi, hududlarni har taraflama rivojlantirish, jamiyat hayotida demokratik qadriyatlarning o'rnini oshirish maqsadida – mahalliy boshqaruv organlari, o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatining huquqiy asoslari yaratildi. Bu esa jamiyatimizda fuqarolik jamiyati asoslarini yaratishda muhim omilga aylandi.

Davlat mustaqilligi va fuqarolik jamiyati asoslarining yaratilishi bilan bir qatorda mamlakatimizni tashqi siyosiy munosabatlarda xorijiy davlatlar tomonidan O'zbekiston mustaqilligining tan olinishi va xalqaro hamjamiyatga integratsiyasi davlat taraqqiyotining asosiy mezonlaridan biri hisoblanadi.

Mustaqillikning dastlabki yillarida 125 mamlakat davlatimiz mustaqilligini tan oldi, 40 dan ziyod davlatlar bilan diplomati aloqalar o'rnatildi. O'zbekistonning 1992 yil 2-martda BMT a'zosi sifatida tan olinganligi Mustaqil O'zbekistonning xalqaro maydonda o'z imijini shakllantirishda muhim qadam bo'ldi. Bundan tashqari davlatimiz ko'plab xalqaro tashkilotlarning teng huquqli subyekti sifatida tan olindi.

“O‘zbekistonning davlat mustaqilligini qo‘lga kiritilganligi va u xalqaro miqyosida tan olinganligi shuni bildiradiki, bundan buyon Respublika mustaqil ichki va tashqi siyosatini olib boradi, hech kimning vositachilgisiz o‘zaro manfaatli munosabatlarni o‘rnatadi. Respublikani haqiqatan ham, uning milliy manfaatlaridan kelib chiqqan holda, xalqning azaliy turmush tarzi, an‘analari, urf-odatlar va ko‘nikmalarini, mavjud beqiyos tabiiy boyliklarini har tomonlama hisobga olib, yuksaltirish amalda mumkin bo‘lib qoldi”²

O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligi asoslarining yaratilishi va xalqaro hamjamiyat tomonidan e‘tirof etilishi xalqimizning munosib turmush tarzi qaror topishida, inson huquq va erkinliklarining kafolatlanishi, milliy an‘analar madaniyatning qayta tiklanishi, shaxs sifatida insonning ma‘naviy-axloqiy kamol topishini ta‘minlashda muhim asos vazifasini bajardi.

Davlatimiz tomonidan jamiyat taraqqiyotini yuksaltirishga va shu orqali kuchli fuqarolik jamiyatini shakllantirishga e‘tibor qaratildi.

Mamlakatimiz mustaqil taraqqiyot strategiyasining bosh g‘oyasi bu - xalqimiz uchun munosib bo‘lgan erkin, farovon hayotni barpo qilish va uni mutassil rivojlantirib borishdan iboratdir. O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A. Karimov tomonidan mustaqillikning ilk yillarida yurtimizda demokratik, fuqarolik jamiyatini barpo qilish maqsadlari belgilab olindi.

Zero, jahon tajribalari ham isbotlab turganidek, aynan fuqarolik jamiyati sharoitida inson hayotini tashkil etish, uning haq-huquqlarini ro‘yobga chiqarishning eng samarali va maqbul bo‘lgan imkoniyatlari vujudga keladi. Fuqarolik jamiyati insoniyat jamiyatini tashkil etishning eng zamonaviy va takomillashgan usuli sifatida barcha tomonidan e‘tirof etilayotgani ham bejiz emas.

O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A. Karimov ta‘kidlaganidek, “Biz uchun fuqarolik jamiyati - ijtimoiy makon. Bu makonda qonun ustuvor bulib, u insonning o‘z-o‘zini kamol toptirishiga monelik qilmaydi, aksincha, yordam beradi. Shaxs manfaatlarini, uning huquq va erkinliklari to‘la darajada

² I.A.Karimov O‘zbekiston buyuk kelajak sari. -T.: O‘zbekiston. 1998.-B. 9.

ro'yobga chiqishida ko'maklashadi. Ayni vaqtda boshqa odamlarning huquq va erkinliklari kamsitilishiga yo'l qo'yilmaydi. Ya'ni erkinlik va qonunga bo'ysinish bir vaqtning o'zida amal qiladi, bir-birini to'ldiradi va bir-birini taqozo etadi. Boshqacha aytganda, davlatning qonunlari inson va fuqaro huquqlarini kamsitmasligi lozim. Shuning barobarida barcha odamlar qonunlarga so'zsiz rioya qilishlari shart"³.

Mustaqillik davrida O'zbekiston Respublikasining o'z istiqlol yo'li tanlashda, taraqqiyotning "o'zbek modeli"ni ilmiy falsafiy jihatdan har taraflama mustahkam asoslashda va jamiyat taraqqiyotini prognoz qilish ma'lum bir konseptual asarlar muhim metodologik asos vazifasini bajaradi. O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A. Karimovning "O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li" asari ham mustaqillik dastlabki yillarida davlat mustaqilligimizni va tanlagan taraqqiyot yo'limizni ilmiy jihatdan asoslashda muhim konseptual manba sifatida foydalanildi.

Shu bois, tanlangan mavzuning dolzarbligi, bizningcha, quyidagi jihatlar bilan belgilanadi.

Birinchidan, O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A. Karimovning "O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li" asari davlat mustaqilligini ilmiy nazariy asoslashda muhim konseptual manba ekanligiga e'tibor qaratish muhim sanaladi.

Ikkinchidan, O'zbekiston mustaqilligining qo'lga kiritilishi va ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyoti sharoitida O'zbekistonni rivojlantirishning huquqiy asoslari va ma'naviy tamoyillarini har jihatdan ilmiy asosda tahlil qilish jamiyat rivojining keyingi istiqbollari belgilashda muhim ahamiyatga ega.

Uchinchidan, "O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li" asaridagi bunyodkor g'oyalar va ularning yoshlar tarbiyasiga ta'sirini tahlil qilish orqali jamiyatdagi ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash tendensiyalarini ishlab chiqish muhim asos sanaladi.

^{3 3} I.A.Karimov O'zbekiston buyuk kelajak sari/ -T,: O'zbekiston. 1998.-B.554.

Bitiruv malakaviy ishining o'rganilganlik darajasi: O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A. Karimovning “O'zbekistonning o'z istiqloq va taraqqiyot yo'li” asarini ijtimoiy-falsafiy tahlil qilish orqali mustaqillik davri mamlakatimizdagi mavjud ijtimoiy siyosiy vaziyatni tahlil qilishga va yangi taraqqiyot nazariyalarini ishlab chiqishda muhim metodologik manba sifatida qaraladi. Yurtimiz olimlari A.Azizxo'jayev, I.Ergashev, A.Begmatov, C.Otamurodov, T.Jo'rayev, A.Xolbekov, M.Qirg'izboyev, Q.Nazarov, M.Abdullayeva, N.Shermuhammedova, Sh.Madayevalar tomonidan O'zbekistonda fuqarolik jamiyati asoslarini tadqiq qilishda manba sifatida foydalangan.

Bitiruv malakaviy ishining maqsadi va vazifalari: O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A. Karimovning “O'zbekistonning o'z istiqloq va taraqqiyot yo'li” asarini o'rganish orqali mustaqillikning dastlabki davrida mavjud ijtimoiy siyosiy vaziyatni tahlil qilish, ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyoti sharoitida O'zbekistonni rivojlantirishning huquqiy asoslari va ma'naviy tamoyillarining ustuvor yo'nalishlarini tadqiq etish va mazur asarning g'oyaviy tarbiyaviy jihatlarini tahlil qilish bitiruv malakaviy ishining maqsadi va vazifalari sanaladi.

Bitiruv malakaviy ishining obyeksi: O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A. Karimovning “O'zbekistonning o'z istiqloq va taraqqiyot yo'li” asarini ijtimoiy-falsafiy jihatdan tahlil qilish bitiruv malakaviy ishining obyeksi sanaladi.

Bitiruv malakaviy ishining predmeti: O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A. Karimovning “O'zbekistonning o'z istiqloq va taraqqiyot yo'li” asaridagi ijtimoiy taraqqiyot g'oyalari bitiruv malakaviy ishining predmeti sanaladi.

Bitiruv malakaviy ishining metodologik asosi: O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A. Karimovning asarlari mazkur bitiruv malakaviy ishning metodologik asosini tashkil qiladi.

Bitiruv malakaviy ishining tuzilishi: Kirish, 2 bo'lim, 4 bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Hajmi sahifadan iborat.

I BOB. I.A.KARIMOVNING “O'ZBEKISTONNING O'Z ISTIQLOL VA TARAQQIYOT YO'LI” ASARINI O'RGANISHNING ZARURIYATI VA AHAMIYATI

1.1. O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li asarining nazariy konseptual metodologik mohiyati

O'zbekiston XX asrning so'nggi o'n yilligida mustaqillikka erishdi va o'ziga xos taraqqiyot yo'lini tanlab oldi. Mustaqil suveren davlat, deb e'lon qilingan O'zbekiston Respublikasi mustaqil ichki va tashqi siyosat olib borishni, barcha fuqarolarining manfaatlarini himoya qilishni, ularga huquq va erkinlik kafolatini berishni, shuningdek, xalq farovonligini oshirib borishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ydi va o'zining strategik maqsadi – ozod va obod vatan, erkin va forovon hayot, bozor iqtisodiyotiga asoslangan erkin demokratik jamiyat barpo etishni belgiladi.

“O'zbekiston – kelajagi buyuk davlat. Bu – mustaqil, demokratik, huquqiy davlatdir. Bu – insonparvarlik qoidalariga asoslangan, millati, dini, ijtimoiy ahvoli, siyosiy e'tiqodlaridan qat'iy nazar fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini ta'minlab beradigan davlatdir”⁴.

Mustaqillikning dastlabki davrida jamiyat hayotida sodir bo'layotgan o'zgarishlarni tahlil qilishda Birinchi Prezidentimiz tomonidan yaratilgan “O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li” asari muhim ahamiyatga ega sanaladi. Bu asarda O'zbekiston taraqqiyotining o'ziga xos yo'li va demokratik jamiyat qurishning jahon taraqqiyoti tajribasi tahlil qilingan.

Asarda quyidagi masalalarga e'tibor qaratilgan;

1. Ma'muriy buyruqbozlik tizimidan demokratik, butun jamiyatning tuzilishiga o'tish;
2. Mulkchilikning begonalashuvi: rejali iqtisodiyotdan bozor iqtisodiyotiga o'tish;
3. Totalitar, aqidaparastlik mafkurasidan xurfiylikka, ko'ppartiyaviylikka, umuminsoniy ma'naviyatga amal qilish;

⁴ O'zbekiston; Milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura 1 jild -T.: O'zbekiston. 1996. –B.44.

4. Jahon hamjamiyatiga kirib boorish, bu asarda demokratik huquqiy davlat va O‘zbekistonni 125 malakat (bugungi kunda esa 190 yaqin) tan olganligi, 40 dan ortiq davlat bilan diplomatik aloqalar o‘rnatilganligi bayyon etilgan. O‘zbekiston BMT ga 1992 yil 2 martda qabul qilinganligi ko‘rsatilgan. Asar 5 qism, bo‘limlarni o‘zida ifoda etadi. Bular:

5. O‘z yo‘limizning shart-sharoiti va zaminlari.

6. O‘zbekiston demokratik va ijtimoiy adolatli jamiyat.

7. Milliy manfaatlar ustuvorligi va teng huquqli hamkorlikka asoslangan tashqi siyosat.

8. Ijtimoiy jihatdan yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyotini qurish – mustaqil O‘zbekiston ichki siyosatining negizlari

9. Mustaqil O‘zbekistonni rivojlantirishning ma’naviy-axloqiy negizlari.

O‘zbekistonda demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini qurishning o‘ziga xos xususiyatlari har tomonlama asoslanib berildi. Shu asar yozilganidan so‘ng jamiyatimizning siyosiy hayotining barcha sohalari, davlat ba jamiyat qurilishini erkinlashtirish jadallik bilan olib borildi. Bizningcha mazkur asarning tarixiy ahamiyati benihoya katta bo‘lib bu O‘zbekiston fuqarolarining mustaqil taraqqiyoti yo‘lidan sobitqadamlik bilan rivojlanib borishning siyosiy va iqtisodiy yo‘nalishlarini belgilab berdi.

O‘zbekiston Respublika mustaqiligining qo‘lga kiritilishi jamiyat hayotida chuqur o‘zgarishlarning boshlanishiga turtki bo‘ldi. “Xalqlarning ozodlik, mustaqillik va baxt saodatga intilishi, o‘z taqdirini o‘zi belgilashga azmu qarori mana shunday o‘zgarishlarning harakatga keltiruvchi kuchidir”⁵.

Mustaqillik tufayli jamiyat hayotida ma’muriy buyruqbozlik tizimidan demokratik tizimga o‘tildi. Davlat mustaqilligining e’lon qilinishi mamlakatda demokratik qadriyatlarning xalqimiz hayotiga kirib kelishiga zamin yaratdi. Xususan mustaqillikning dastlabki davrida O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligi asoslarini mustahkamlash masalasiga e’tibor berildi. Birinchi

⁵ I.A. Karimov O‘zbekiston buyuk kelajak sari. T: “O‘zbekiston”, 1998.-B.57.

navbatda davlatimiz oldida turgan asosiy maqsad milliy boyliklarimiz ustidan davlat nazoratini o'rnatish va egalik huquqini kafolatlash edi. Shu maqsadda bir yil ichida, yillar davomida erishishga muvaffaq bo'lmagan milliy boyliklarimizga egalik huquqi qo'lga kiritdik. Natijada O'zbekiston Respublikasining hududi va iqtisodiy qudrati yaxlitligi kafolatlandi.

Har bir davlat mustaqillikka erishganidan so'ng jamiyatda tub islohotlarni amalga oshirish yo'llarini ishlab chiqdi. Mustaqillikdan so'ng Respublikamizda huquqiy demokratik davlat qurishga asosiy e'tibor qaratildi. Demokratik davlatning asosi bo'lgan demokratik qadriyatlar jamiyat hayotining asosiy mezoniga aylandi. Xususan davlat boshqaruvida ma'muriy buyruqbozlik, yakkahokimlik tizimi tugatilib, ko'ppartiyaviylik, g'oya va fikrlar xilma xilligi qaror topdi. Jamiyat boshqaruvida yakka mafkura hukumronligi barham topib turli guruh, sinflar manfaatini o'zida mujassam etgan mafkura shakllandi.

Mustaqillik va demokratik qadriyatlarning jamiyat hayotiga kirib kelishi davlat va jamiyat boshqaruvida davlat yakkahokimligining tugatilishiga va qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatining shakllanishiga sabab bo'ldi. Fuqarolik jamiyatining qay darajada qaror topganligi bilan ham belgilanadi.

O'tish davri sharoitida fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirish jarayonida O'zbekiston aholisi turli qatlamlarning manfaatlarini ifoda etishi lozim bo'lgan, keng tarmoqli, ko'ppartiyali tizim kabi demokratik institutlar hamda boshqa jamoat tashkilotlarining qaror topishi muhim ahamiyat kasb etdi. Shu jihatdan olganda davlatning ro'li siyosiy partiyalar va jamaotchilik harakatlarining vujudga kelishi, qaror topishi va rivojlanishini sekinlashtirib qo'yadigan har qanday to'siqlarni bartaraf etishdan iborat hisoblanadi. Shu maqsadda mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab mamlakatimizda ma'muriy buyruqbozlik tizimiga barham berishga siyosiy hayotda erkinlik va plyuralizimni taminlashga e'tibor berildi. Jamiyatda fuqarolarning siyosiy huquqlarini amalga oshirishi ifoda etadigan siyosiy partiyalar, jamoat birlashmalari faoliyatining huquqiy asoslarini mustahkamlashga e'tibor qaratildi. "Zero siyosiy partiyalarsiz

va jamoatchilik harakatisiz respublikada valillik demokratiyasini tasavvur qilib bo'lmaydi"⁶.

Birinchi prezidentimiz tomonidan qaratilgan "O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li" asarida ilgari surilgan masalalardan yana biri davlatimiz taraqqiyotini belgilashda, tanlagan yo'limizning qanchalik to'g'ri ekanligi ko'rsatishda tanlagan yo'limizning shart-sharoitlari va zaminlari masalasi hisoblanadi. Mustaqillikning dastlabki kunlaridan boshlab o'z taraqqiyot yo'lini barpo etish masalasiga e'tibor qaratildi. Milliy rivojlanish modelini ishlab chiqishga e'tibor qaratildi. Dunyoda taraqqiy etgan mamlakatlar modellari o'rganib chiqildi. "Jahon va o'zimizning amaliyotimizdan olingan barcha unumli tajribani rad etmagan holda o'z ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy-huquqiy taraqqiyot yo'limizni tanlab olish respublikaning qat'iy pozitsiyasidir"⁷.

Mustaqillikning dastlabki yillarida odamlarning ongini o'zgartirishga, ma'muriy buyruqbozlik barham berishga odamlar dunyoqarashi va tafakkurida yangilanishlar va o'zgarishlar, demokratik qadriyatlarni qaror toptirishga e'tibor berildi. O'zbekistonning chinakam mustaqilligini ta'minlashda o'ziga xos xususiyatlar vas hart-sharoitlardan kelib chiqqan holda rivojlantirishga e'tibor qaratildi:

1. Aholining milliy-tarixiy turmush va tafakkur tarzi xalq an'anasi va urf-odatlariga e'tibor qaratildi.

2. Respublikadagi o'ziga xos demokratik vaziyat g'oyat muhim hususiyatlardan biri sifatida qaraldi.

3. Respublikamizdagi milliy tarkibning o'ziga xosligi inobatga olindi.

4. Respublikamizning qulay geostrategik mavqeyga ega ekanligiga ahamiyat qaratildi.

5. O'zbekistonda islohotlarni amalga oshirtish va yangi yondaoshuvlarni vujudga keltirishda tabiiy iqlim sharoitlari ham ta'sir ko'rsatadi.

⁶ I.A. Karimov O'zbekiston buyuk kelajak sari. T.: "O'zbekiston", 1998.-B.555.

⁷ I.A. Karimov O'zbekiston buyuk kelajak sari. T.: "O'zbekiston", 1998. -B.10 .

6. O‘zbekiston Respublikasining siyosiy va iqtisodiy mustaqilligini himoya qilish imkonini beradigan yetarli potensiyalga ega ekanligi alohida hususiyat sifaida qaraldi.

7. Jamiyatda ma‘lum qadriyatlarga ega bo‘lgan kishilarning muayyan ojtimoiy ongi shakllanayotgan edi. Yuqorida qayd etilgan shart-sharoitlar mustaqillikning dastlabki yillarda O‘zbekistonning ichki va tashqi siyosatining o‘ziga xos xususiyatlarini va umumiy startegiyasini belgilashda asos vazifasini bajaradi.

O‘zbekistonning ichki va tashqi siyosatining asoslaridan kelib chiqqan holda adolatli jamiyat qurish masalasi bosh vazifaga aylandi. Davlat va jamiyat boshqaruvida xalq manfaatlarini himoya qilish ustuvor vaziofa sifatida qaraldi. “Xalq davlat hokimiyatining manbaidir. Uning xohish irodasi davlat siyosatini belgilab beradi. Bu siyoasy inson va jamiyatning farvonligini, O‘zbekiston barcha fuqarolarning munosib turmushini ta‘minlashga qaratilgan bo‘lishi kerak”⁸

Mustaqillikning qo‘lga kiritilishi jamiyatda yangi dunyoqarashning shakllanishiga insonlar ongi va tafakkurida yangicha qarashlarni keltirib chiqardi o‘zgarishlar bu o‘z navbatida insonlarning siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy turmush tarzini erkin tanlab olishini kafolatladi. Bundan tashqari o‘zgarishlar siyosiy sohada demokratik qadriyatlarning insoniyat turmush tarzining ajralmas bir qismiga aylanishiga sabab bo‘ldi. “Fuqarolar tinchligi va millatlararo totuvlikni ta‘minlash, qonuniylik va huquq tartibotini qaror toptirish siyosiy, davlat va konstitutsiyaviy tuzumga erishish kalitidir”⁹.

O‘zbekiston mustaqilligini qo‘lga kiritgan kundan boshlab Xalqaro maydonda o‘z o‘rniga ega bo‘lishiga e‘tibor qaratdi. O‘zbekiston BMT va boshqa xalqaro tashkilotlarning a‘ziligiga qabul qilindi. Xalqaro tashkilotlar bilan yo‘lga qo‘yilgan xamkorlik O‘zbekistonning jahon hamjamiyatiga integratsiyasini tezlatdi va xalqaro maydonda o‘z omijini yaratishga zamin bo‘ldi. “O‘zbekistonning milliy manfaatlariga mos keladigan ko‘p tomonlama faol tashqi

⁸ I.A. Karimov O‘zbekiston buyuk kelajak sari. T.: “O‘zbekiston”, 1998. -B.15

⁹ I.A. Karimov O‘zbekiston buyuk kelajak sari. T.: “O‘zbekiston”, 1998. -B.21.

siyosatni amalga oshirish-davlatimizning mustaqilligini mustahkamlash, iqtisodiy qiyinchiliklarni bartaraf etish va xalq turmushini yaxshilashning zarur sharti va g‘oyad muhim vazifasidir”¹⁰.

Mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab milliy manfaatlar ustuvorligi va teng huquqli hamkorlikka asoslangan tashqi siyosatning quyidagi asosiy prinsplari belgilandi.

1. O‘zining milliy-davlat manfaatlari ustun bo‘lgani xolda o‘zaro manfaatlarni har tomonlama hisobga olish. Bizning mustaqil davlatimiz biron-bir buyuk davlatning ta’sir doirasiga tushib qolish niyatida emas. O‘zbekiston yana kimgadir bo‘ysunish ushuni mustaqil bo‘lgani yo‘q.

2. Respublika odamlar va davlatlar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarda umumbashariy qadriyatlarni ustun qo‘yib xalqaro maydonda tinchlik va xavfsizlikni mustahkamlash uchun mojarolarni tinch yo‘l bilan hal etish uchun kurashadi. O‘zbekiston yadrosiz mintaqaga bo‘lib qoladi, tajovuzkor harbiy bloklar va uyushmalarga kirish niyati yo‘q.

Inson huquqlari to‘g‘risidagi, hujum qilmaslik haqidagi, nizoli masalalarni hal etishda kuch ishlatishdan va kuch bilan tahdid qilishdan voz kechish to‘g‘risidagi Xalqaro hujjatni tan oladi va ularga og‘ishmay rioya qiladi.

3. Respublikaning tashqi siyosati teng huquqlilik va o‘zaro manfaatdorlik, boshqa mamalakatlarning ichki ishlariga aralashmaslik qoidalari asosida quriladi. Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligida, butun tashqi siyosatda ham bizning shiorimiz- tenglar orasida teng bo‘lish, “katta og‘a”ning qosh-qovog‘iga qarab ish tutishdan uzil-kesil va abadul-abad xalos bo‘lishdir.

4. Mafkuraviy qarashlardan qat’iy nazar tashqi siyosatda ochiq-oydinlik prinsplini ro‘yobga chiqarishga va barcha tinchlik sevar davlatlar bilan keng tashqi maloqalarni o‘rnatishga intiladi.

5. O‘zining milliy-huquqiy tizimini vujudga keltirayotgan yosh mustaqil O‘zbekiston ichki milliy qonunlaridan xalqaro huquq normalarining ustuvorligini

¹⁰ I.A. Karimov O‘zbekiston buyuk kelajak sari. T.: “O‘zbekiston”, 1998. -B. 22 .

tan oladi. Bizning mustaqil davlatimiz o‘z qiyofasini yo‘qotmay, jaxon hamjamiyatiga kirar ekan, xalqaro talabalarga riyoya qilishga tayyordir.

6. O‘zbekiston to‘la ishonch prinsiplari asosida ham ikki tomonlama, ham ko‘p tomonlama tashqi aloqarni o‘rnatish va rivojlantirish uchun xalqaro tashkilotlar doirasida hamkorlikni chuqurlashtirish uchun harakat qiladi¹¹.

O‘zbekiston o‘zining tashqi siyosatini ishlab chiqish va amalaga oshirishda yuqorida aytib o‘tilgan qattiy prinsplarga rioya qiladi, ularni boyitib va kengaytirib borib tashqi siyosiy hamda tashqi iqtisodiy faoliyatning asosiy yo‘nalishlarini qatiyat ba izchilik bilan turmushga tadbqiq etadi.

Mustaqillikning dastlabki kunlaridan boshlab ijtimoiy jihatdan yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyotini qurish mustaqil O‘zbekiston ichki siyosatining negizini tashkil qildi. “Xalq manfaatlariga javob beruvchi mustaqil iqtisodiy siyosat- O‘zbekistonni mustaqil rivojlantirishning ajralmas shartidir”¹².

O‘zbekistonda bozor munosabatlarini qaror toptirishda quyidagi jihatlariga e‘tibor qaratiladi:

- 1- Bozor munosabatlariga o‘tish evalutsion yo‘l orqali amalaga oshirildi.
- 2- Bozor mehanizmlarini joriy etishdan oldin insonlarni ijtimoiy himoya qilish tadbirlari amalga oshirildi.
- 3- Ichki iqtisodiy strategiyani har qanday siyosiy mafkura ta’siridan holi qilishga qaratildi.
- 4- Ichki siyosatda har bir kishining, korxonalar tarmoqlar, mintaqalar va umumiy davlat manfaatlarini uyg‘unlashtirishga e‘tibor qaratiladi.
- 5- Davlat va hokimyat boshqaruv tuzilmalarining to‘g‘ridan to‘g‘ri xo‘jalik faoliyatiga aralashishni chekladi.
- 6- Barcha iqtisodiyot subyektlariga iqtisodiy faoliyatni qonuniy asosda amalaga oshirish uchun teng imkoniyatlar berildi.

Yuqorida keltirib o‘tilgan jihatlar O‘zbekistonda bozor munosabatlarining qaror topishiga asos bo‘ladi. O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti

¹¹

¹² I.A. Karimov O‘zbekiston buyuk kelajak sari. T.: “O‘zbekiston”, 1998. -B. 36.

tomonidan yaratilgan O‘zbekistonning o‘z istiqlol va taraqqiyot yo‘li asarida ilgari surilgan konsepsiyaviy qarashlardan biri Mustaqil O‘zbekistonni rivojlantirishning ma’naviy-xaloqiy negizlari masalasi tahlil qilinganligidir.

O‘zbekistonni modernizatsiya qilishda 4 ta asosiy negizni keltirib o‘tadi.

- 1- Umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik.
- 2- Xalqimizning ma’naviy merosini mustahkamlashva rivojlantirish.
- 3- Insonlarning imkoniyalarini erkin namoyon qilish.
- 4- Vatanparvarlik¹³.**

Mustaqil O‘zbekistonning birinchi Konstitutsiyasi yangi jamiyatning ishonchli huquqiy kafolatlarini shakllantirdi va mustahkamladi. Asosiy qonun har tomonlama va chuqur o‘ylangan umumxalq muhokamasidan keyin demokratik yo‘l bilan qabul qilindi. Umumiy g‘oyasiz bizning ko‘p millatli mamlakatimizda mustahkam ma’naviy makonni yaratish mumkin emas edi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi mamlakatimizda inson huquqlari, ozodlik, barqarorlik va taraqqiyot majmuini ifodalaydigan demokratik, huquqiy va adolatli davlat qurishning huquqiy asoslarini shakllantirdi.

Xulosa sifatida shuni takidlash kerakki O‘zbekistonning o‘z istiqlol va taraqqiyot yo‘li asari mustaqillikning dastlabki davrida O‘zbekiston taraqqiyotini belgilashda muhim konsepsiya vazifasini bajargan. Mazkur asar orqali o‘sha davrda jamiyatda mavjud muammolar tahlil etilgan va ularni bartaraf etish yo‘llari ko‘rsatib o‘tilgan.

1.2. Ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyoti sharoitida O'zbekistonni rivojlantirishning huquqiy asoslari va ma'naviy tamoyillari

1.3.

Mustaqillikning qo'lga kiritilishi mamlakatimizda ijtimoiy yo'naltirilgan bozor bozor iqtisodiyoti asoslarini yaratishda muhim rol o'ynadi. "Xalq manfaatlariga javob beruvchi mustaqil iqtisodiy siyosat – O'zbekistonni mustaqil rivojlantirishning ajralmas shartidir."¹⁴

Mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab, mustamlaka davrining og'ir asoratlarini bartaraf etish, inqirozdan chiqib olish, o'zining iqtisodiy mustaqilligiga erishish, rivojlangan mamlakatlar qatoriga kirish imkonini beradigan yetarli imkoniyatga egadir. O'zbekiston Respublikasi ichki siyosatining negizi – inson manfaatlariga qaratilgan mehnatni rag'batlantirish kuchli mexanizmiga ega bo'lgan va aholining ijtimoiy nochor qatlamlarini davlat yo'li bilan himoya qiladigan bozor iqtisodiyotini qurishga e'tibor qaratildi. Mamlakatimizda uyushgan bozor munosabatlarini rivojlantirish orqali xalqimizning ijodiy va mehnat imkoniyatlarini ochib bera oladigan, boqimandalikka barham beruvchi, tashabbuskorlik va ishbilarmonlikni rivojlantira oladigan tizimni shakllantirishga e'tibor qaratildi.

"Bozorga o'tish muqarrar. Bu – davr amri, ob'yektiv reallikdir. Ayni vaqtda bozor faqat maqsad emas, balki yangi qadriyatlarni shakllantirish, odamlar farovonligining sifat jihatidan tubdan yuqori darajasiga erishish uslubi va vositasidir."¹⁵

O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimov tomonidan ishlab chiqilgan va O'zbekiston iqtisodiyotini isloh qilishga qaratilgan besh asosiy prinsip mamlakatimizning o'tish davrida rivojlanishini belgilab beruvchi obyektiv qonunlarning ro'yobga chiqishi uchun asosiy, hal qiluvchi shart-sharoit bo'lib xizmat qiladi. Ya'ni ana shu besh prinsip "o'z istiqlol, rivojlanish va taraqqiyot yo'limizga asos qilib olingan bo'lib, o'tish davri dasturining negizini tashkil etadi.

¹⁴ I.A. Karimov O'zbekiston buyuk kelajak sari. T: "O'zbekiston", 1998. –B.36.

¹⁵ I.A. Karimov O'zbekiston buyuk kelajak sari. T: "O'zbekiston", 1998. –B.39 .

Hozir bu qoidalarining amalga oshirilishi respublikada ijtimoiy-siyosiy barqarorlikni, eng muhimi, bozor munosabatlarini joriy etish yo'lidan izchil harakat qilishni ta'minlaydi". Ko'rinib turibdiki, Birinchi prezidentimiz I.A.Karimov tomonidan ishlab qilgan mazkur besh prinsip aynan ana shu obyektiv tarixiy zaruratni to'g'ri anglash, chuqur ilmiy bilish, iqtisodiyotning rivojlanish qonunlarini hamda shu qonuniyatlarning sababini o'z vaqtida va atroflicha tahlil qilish asosida yaratilgan.

O'zbekistonning ichki iqtisodiy siyosati ham o'zimizning yangilanish va ijtimoiy taraqqiyot yo'lining umumiy prinsiplaridan, ham o'ziga xos xususiyatlarimizdan kelib chiqadi. O'ziga xos xususiyatlar deganda quyidagilar nazarda tutiladi:

1. Real tarkib topgan iqtisodiy vaziyat, ko'pchilik oilalarning turmush darajasi pastligi tufayli respublikada bozor iqtisodiyotiga o'tishning "shok terapiyasi" yo'li nomaqbuldir. U amalda "terapiyasiz shok" bo'lib qaytadi, ya'ni tarkib topgan barcha tuzilmalar, me'yorlar, aloqalar tezda barbod bo'ladi, boshqacha aytganda, batamom yemiriladi. Tashkiliy, iqtisodiy, moliya-kredit tizimlarini o'zgartirish, tegishli huquqiy asosni, bozor tarmoqlari majmuini vujudga keltirish, kadrlar tayyorlash uchun vaqt kerak. Ishlab chiqarishni tayyorlash va qayta jihozlash uchun zarur bo'lgan texnologiya vaqti omilini ham hisobga olish lozim. Va nihoyat, ehtiyoj va taklifning mutanosibligiga asoslangan qonunlar kuchga kirmas ekan, qattiq o'rnashib qolgan tasavvurlar va me'yorlarni o'zgartirishga vaqt kerak bo'ladi.

Bozor iqtisodiyoti sari buyuk sakrashlar, inqilobiy qayta o'zgarishlar yo'li bilan emas, balki sobitqadamlik va izchillik bilan - bosqichma-bosqich harakat qilish kerak. Bizning bozorga o'tishimizdagi o'ziga xos xususiyatlarimiz ana shundadir. Bir bosqichni tugatib, zarur shart-sharoitlar yaratib bo'lgandan keyingina yangi bosqichga o'tish kerak. Bunda har bir bosqichning o'z ustuvorliklari shakllanadi. Ularni ta'minlashning o'z mexanizmi ishlanadi. Har bir bosqichning qancha davom etishi hal qilinishi lozim bo'lgan muammolar

doirasiga, tashqi omillar qanchalik qulay bo'lishiga, aholining mehnat faolligiga bog'liqdir.

Zarur shart-sharoitni yaratmay turib, odamlarni jiddiy o'zgarishlarga ruhan tayyorlamay turib, bozor munosabatlarining belgilarini o'ta jadallik bilan, suniy ravishda o'tkazish kutilgan natijalarni bermasligi u yoqda tursin, hatto bozor iqtisodiyotini qurish G'oyasiga putur yetkazadi.

Ayni vaqtda, iqtisodiy islohotni tatbiq etishda, yetilgan yechimlarni qabul qilishda sustkashlik va kechikishga yo'l qo'yish shusiz ham iqtisoddagi va ijtimoiy sohadagi o'ta og'ir ahvolni murakkablashtiradi.

Eng muhimi, hamma bozor munosabatlariga asoslangan rivojlangan jamiyatni qurish - bu uzoq murakkab jarayon ekanligini, uni doimiy ravishda chuqur idrok qilish va zarur hollarda tuzatishlar kiritishni talab qilishini anglamog'i kerak. Kishilarning tafakkurini, qotib qolgan tushunchalarni o'zgartirish ayniqsa muhimdir. Fikrlashni qadam-baqadam o'zgartira borib, amalda boshqa mamlakatlarda yuz yillab qurilgan yangi tizimning afzalliklariga kelamiz.

2. Bozor mexanizmlarini joriy etishdan oldin insonlarni ijtimoiy himoya qilish tadbirlari amalga oshirilmog'i lozim. Davlat o'z aholisini himoya qila olgan taqdirdagina insonparvar hisoblanadi. Davlat kishilarga, ayniqsa yordamga muhtoj bo'lganlarga, ijtimoiy nochor qatlamlarga, yetimlar, bolalar, o'quvchilar, nafaqaxo'rlar va nogironlar, yolg'iz onalar, ko'p bolali va kam ta'minlangan oilalarga o'z vaqtida yordam ko'rsatishi kerak.

Aholini va, avvalo, uning nochor guruhlarini ijtimoiy muhofaza qilish qanday manbalar hisobidan ta'minlanishi mumkin? Milliy daromadni qayta taqsimlash - davlat qo'lidagi eng asosiy manba va vositadir. Taraqqiy etgan mamlakatlarda ishlab chiqarish va iste'molning vujudga kelgan tarkibiga qarab qayta taqsimlanadigan milliy daromadning ulushi ba'zida 30-50 foizga yetadi. Ijtimoiy-madaniy sohaga, ilm-fanga, texnikaviy taraqqiyot va mudofaaga ham mablag'lar mana shuning hisobidan ta'minlanadi.

Shvetsiya, Germaniya, Avstriya va boshqa bir qator rivojlangan xorijiy mamlakatlarning tajribasi shuni ko'rsatadiki, kishilarni ijtimoiy himoyalash va uni kafolatlashning kuchli, ta'sirchan mexanizmi bo'lgandagina bozor iqtisodiyotiga sobitqadamlik bilan o'tishni ta'minlash, tarkibiy qayta qurishni amalga oshirish, ijtimoiy-siyosiy barqarorlikni saqlagan holda ishlab chiqarish munosabatlarini tubdan isloh qilish mumkin.

3. Ichki iqtisodiy strategiya har qanday siyosiy mafkura ta'siridan butunlay holi bo'lishi kerak. O'tgan yillar iqtisodiyoti o'ta siyosiy lashtirib yuborilgan edi. Iqtisodiy maqbullikdan siyosiy konyunkturaviy manfaatlarning ustun kelishi sobiq Ittifoq xalq xo'jaligini parokandalik yoqasiga, iqtisodiy va ijtimoiy munosabatlarning jiddiy buzilishiga, ishlab chiqarishning texnika jihatidan qoloqligiga olib keldi. Iqtisodiyot faqat unga xos bo'lgan ichki qonuniyatlar asosida rivojlanmog'i darkor. Mamlakatimiz olidagi vazifa ham ularni yaxshi tushunib yetishdan va o'z xalqimiz manfaatlari yo'lida mohirona qo'llashdan iboratdir. Shu bilan birga hozirgi bosqichda iqtisodiy muammolarni hal etishni asosiy siyosiy maqsadga - mustaqil demokratik davlatni qaror toptirishga bo'ysundirish hayotiy muhim va obyektiv zaruriyatdir.

4. Ichki siyosatning yetakchi prinsiplaridan biri har bir kishining, korxonalar, tarmoqlar, mintaqalar va umuman davlatning manfaatlarini monand ravishda uyg'unlashtirishni ta'minlashdan iboratdir.

Insonga munosib hayot sharoiti, uning o'zini namoyon qila olishi uchun imkoniyatlar yaratish - iqtisodiyotimizni va butun jamiyatni rivojlantirishning oliy maqsadidir.

Bu yo'lni izchillik bilan o'tkazish o'tish davrining har bir bosqichida, uning yetilgan vazifalaridan kelib chiqqan holda, ayni shu pallada qaysi manfaatlar ustun kelishini belgilab olishni talab qiladi.

Mustaqillikning dastlabki yillarida jamiyatni yangilash, erkin ishbilarmonlik iziga ko'chirish vazifalarini hal etish uchun kuchli mustaqil davlat, uning idoralari tarkibi, huquqiy asoslari, mudofaa va milliy xavfsizlik tizimining qaror topishi alohida ahamiyatga ega. Bu bosqichda davlat manfaatlari ustun bo'lishi kerak.

Faqat shunday qilingandagina ham ishbilarmonlarning manfaatlarini, ham aholi manfaatlarini himoya qilish mumkin.

5. Bozorga o'tilgan sari iqtisodiyotni boshqarish va tartibga solishda davlatning roli jiddiy o'zgaradi. Davlat, uning hokimiyat boshqaruv tuzilmalari to'g'ridan-to'g'ri xo'jalik faoliyatiga aralashishdan chetda bo'lishi kerak. Bozor iqtisodiyotining o'zini o'zi tartibga soluvchi mexanizmlari tobora katta rol o'ynaydi. Davlatda, faqat iqtisodiy dastur va rag'batlantirish vazifalari qoladi¹⁶.

Iqtisodiy va ijtimoiy jarayonlarni davlat yo'li bilan tartibga solish hammaga ma'lum dasturlar - moliya, kredit, soliq, valyuta siyosati, narxlarni nazorat qilish hamda bilvosita ta'sir ko'rsatishning boshqa choralari yordamida amalga oshiriladi. Xuddi shu yo'l bilan haqiqiy bozor munosabatlariga o'tish va u uchun zarur sharoitlar yaratish mumkin.

Sobiq sho'rolar tuzumi tanazzulga yuz tutganidan so'ng uning o'rnida vujudga kelgan mustaqil davlatlarning deyarli barchasi o'z oldiga bozor munosabatlariga asoslangan xuquqiy demokratik davlat qurish vazifasini qo'ydi. Mana shu qisqa vaqt ichida ushbu davlatlarning erishgan natijalarini qiyosiy tashkil etadigan bo'lsak, ularning bir-biridan keskin farq etishini ko'ramiz.

Bozor iqtisodiyotining qonunlari va qoidalari mavjud. Bu qonun va qoidalarning amal qilishi, namoyon bo'lishi uchun zarur bo'lgan shart-sharoitlarni yaratishga asos bo'ladigan konsepsiyani ishlab chiqish lozim edi. Ko'pgina sobiq Respublikalar ana shunday tayyorgarliksiz asosiy bo'lmagan "shart-sharoitlar"ni yaratishga kirishdilar. Masalan, Rossiyada 1992 yil 1 yanvarida bozor munosabatlarining asosiy shartlaridan biri bo'lgan uning infrastrukturasi yaratilmasdan turib, nurxlar to'liq erkinlashtirib yuborildi. Natijada iqtisodiyot chuqur tanazzulga yuz tutdi.

Ijtimoiy hodisa va jarayonlar vujudga kelishining sabablariga qarab shu hodisalarni, voqealarni keltirib chiqaradigan bosh shart-sharoitlar bo'ladi. Respublikamiz, xalqimiz uchun ana shunday bosh shart-sharoit mustaqqillikdir. Chuqur o'zgarishlar bizning hayotimizga shiddat bilan kirib bormoqda. Sodir

¹⁶

bo'layotgan tub siljishlar dunyoning hozirgi qiyofasini o'zgartirib yubormoqda. Xalqlarning ozodlik, mustaqillik va baxt-saodatga azaliy intilishi, o'z taqdirini o'zi belgilashga azmu qarori mana shunday o'zgarishlarning harakatga keltiruvchi kuchidir.

O'zbek xalqining ajralmas huquqi, o'z taqdirini o'zi belgalash huquqi ro'yobga chiqarildi. Mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy hayotining hamma sohalarida amalga oshirilayotgan izlanishlar imkoniyati faqat mustaqillik tufayligina vujudga keldi. Mustaqillik o'zbek xalqining o'z taqdirini o'zi belgilashi uchun zarur shart-sharoit yaratdi. Faqat mustaqillik tufayligina sobiq sho'rolarning totalitar siyosiy tizimidan demokratik jamiyatga o'tish uchun, planli iqtisodiyotdan bozor munosabatlariga o'tish uchun qulay shart-sharoit vujudga keldi. Mustaqillik bizning jamiyatimiz uchun yana “zaruriy shart-sharoit” ham hisoblanadi. “Zaruriy shart-sharoit” deganda biz sabab va oqibat zanjiridagi bog'lavchi xalqani tushunamiz. Chunki faqat “zaruriy shart-sharoit” dagina ma'lum oqibatlar vujudga kelishi mumkin. Mustaqillikgimizning “zaruriy shart-sharoiti”, avvalo, iqtisodiyotimizda mustaqillikka erishmog'imiz zarurligidir. Bu mustaqil davlatning zaruriy sharti, avvalo shu mamlakat iqtisodiyotining mustaqil bo'lishligini bildiradi. Biz o'z xalq xo'jaligimizni yaratib, xam iqtisodiy ehtiyojlarimizni yani mustaqil ishlab chiqarish munosabatlarimizni yo'lga qo'yish asosida xalq xo'jaligining normal faoliyat ko'rsatishini ta'minlashimiz mumkin bo'ladi.

Jamiyat qonunlarining amal qilishi va ta'sir shakllarining qay tarzda kechishi, avvalo, shart-sharoitga bevosita bog'liqdir.

Jamiyat qonunlarining ta'siri va namoyon bo'lishi, ba'zan anglangan, ba'zan esa anglanmagan shaklda ro'yobga chiqadi. Jamiyat rivojlanishi tabiiy-tarixiy jarayon sifatida ikki siyosiy xususiyatga ega.

Birinchidan, odamlar o'z tarixlarini faqat ma'lum ijtimoiy-tarixiy shart-sharoitda yaratadilar. Har bir avlod undan ilgarigi avlod yaratgan va ma'naviy boyliklarga ega bo'ladi, moddiy va ma'naviy boyliklarni yaratish jarayonini rivojlantirib borish uchun o'tmish avlodlar faoliyatiga tayanib ish ko'radi.

Ikkinchidan, inson moddiy va ma'naviy boyliklarni yaratish jarayonini jamiyatning uzoq kelajakdagi oqibatlarini hisobga olib emas, balki o'zining shaxsiy va guruhiy ehtiyoj hamda manfaatlaridan kelib chiqqan holda takomillashtirib boradi. Shu jarayonda kishilarning turli xil manfaatlari ba'zan to'qnash kelib qoladi. Albatta, inson har bir xatti-xarakati bilan ma'lum maqsadni ko'zlasada, ushbu maqsadga kamdan-kam holatlardagina erishadi. Ko'pincha inson faoliyatining natijasi kutilmagan salbiy oqibatlarga olib keladi. Bu shundan dalolat beradiki, har bir avlod ijtimoiy hayotga qadam qo'yar ekan, jamiyatda muqim o'rnatilgan munosabatlarga duch keladi va o'z hoxish-irodasiga qarshi ravishda unga bo'ysunishga majbur bo'ladi. Bu o'rinda biz qonunlarning anglanmagan ravishda amal qilishini kuzatamiz.

Jamiyat qonunlarining anglangan kuch shaklida namoyon bo'lishiga, avvalo, jamiyat va inson tomonidan ongli ravishda ba'zi qonunlar ta'sir doirasini cheklash va ba'zilari uchun esa, aksincha, keng sharoit yaratish orqali erishiladi. Jumladan “O'zbekistonning chinakam mustaqilligiga erishishdan iborat o'z yo'li respublikani rivojlantirishning asosiy o'ziga xos xususiyatlari va shart-sharoitlarini har tomonlama hisobga olishga asoslanadi”¹⁷.

Inson jamiyat qonunlarning obyektiv talablarini va ular amal qilishi uchun qulay shart-sharoit yaratish zarurligini anglab yetmas ekan, bu qonunlar uning xohish-irodasiga teskari ta'sir etish orqali uni o'zining passiv quliga aylantirib qo'yadi.

Bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida kishilardan jamiyat rivojlanishi qonunlarining xususiyatini, ta'sir kuchini va namoyon bo'lish shakllarini chuqur bilish talab qilinadi. Xususan kishilar: 1) ijtimoiy jarayon va hodisalarning o'zaro bog'liqligini va ulardan kelib chiqadigan obyektiv talablarni; 2) bu obyektiv talablarni anglab yetish natijalarining ijtimoiy jarayonlarni rejalashtirishda va boshqalarda aks etishini; 3) jamiyat va insonlar uchun oldindan ko'zlangan maqsadlarga, natijalarga erishish yo'llarini anglashlari zarur.

Shuning uchun ham ijtimoiy jarayonlarni, tarixiy hodisalarni oldindan ko'rish, bashorat qilish imkoniyati, avvalo, alohida bir mamlakat rivojining, ma'lum tarixiy davrlar, ijtimoiy jarayonlarning qonuniyatlarini umumlashtirish asosida yuzaga keladi. Ayni paytda shuni alohida ta'kidlab o'tish zarurki, tarixiy jarayonlarni oldindan ko'ra bilishning dastlabki sharti ijtimoiy hodisalar o'rtasidagi obyektiv aloqadorlikni anglashdir. Biroq har qanday ilmiy bashoratning poydevorini qonunlar tashkil qiladi, chunki ular hodisalar, jarayonlar o'rtasidagi ichki, zaruriy, muxim bog'lanishlarni va aloqadorliklarni ochib beradi, shu asosda ijtimoiy hodisa hamda jarayonlar tarixini va hozirgi holatni bilish orqali ularning kelajagini taxmin qilish mumkin bo'ladi.

Respublikamizda olib borilayotgan bugungi tub islohotlar - agar ular iqtisodiyotida bo'lsa, iqtisodiy qonunlarning; sotsial sohada bo'lsa, ijtimoiy qonunlarning - xuddi shu tariqa siyosiy, axloqiy, ekologik va demografik qonunlarning obyektiv talablarini o'z vaqtida bilishni va ulardan amaliy faoliyatimizda, jamiyatimiz va fuqarolarimizning ehtiyoj va manfaatlari yo'lida foydalanishimizni taqozo etadi.

Kishilarning jamiyat qonunlarini bilishga va ulardan o'z amaliy faoliyatida foydalanishga intilishlari tabiiydir. Lekin ijtimoiy jarayonlar juda murakkab, bir-birlari bilan uzviy bog'liq bo'lib, o'zining rivojlanish bosqichlarida juda ko'p hollarda ziddiyatli munosabatlar ta'sirida bo'lganligi tufayli "hukmron yo'nalish shaklida" namoyon bo'ladi. Bunda qonun talabidan kelib chiqadigan ijtimoiy-tarixiy jarayon umumiy rivojlanish yo'nalishidan bevosita emas, balki juda ko'p chetga chiqishlar, buzilishlar bilan birga kelib chiqadi. Natijada bu jarayonlarning bizga oldindan ma'lum bo'lgan qonuniyatlarini ham o'z vaqtida va to'g'ri anglamay qolamiz.

Qonunlarning "hukmron yo'nalish shaklida" namoyon bo'lishining o'ziga xos belgisi bu qonunda ifodalangan jarayon natijaning birdaniga emas, balki ijtimoiy jarayonning oxirida vujudga kelishi, yuzaga chiqishidir. Odatda tarixiy jarayon o'z rivojlanishining ma'lum bosqichlarida qonunning umumiy

yo'nalishga, tartibga zid kelishi mumkin, lekin oxir-oqibatda xodisa, jarayon qonunda belgilangan holatda ro'y beradi, amalga oshadi.

Ijtimoiy qonunlarning xususiyatlaridan biri ularning sof holda emas, balki, ma'lum ma'noda "taxminiy" holda, "hukmron yo'nalish shaklida" namoyon bo'lishidir, chunki ijtimoiy jarayonlar o'z rivojida doimo turli xil tamoyillar va imkoniyatlar bilan bog'liq bo'ladi. Bu qoidaga rioya qilish jamiyat qonularini o'rganishda aloxida metodologik ahamiyat kasb etadi. Qonunlarning "hukmron yo'nalish" shaklida namoyon bo'lishi "qonun" tushunchasini hodisalar o'rtasidagi muhim bog'lanishlarni, "hukmron yo'nalish" tushunchasi esa qonunlarning namoyon bo'lish shaklini ifodalash imkonini beradi.

Jamiyat qonunlari muayyan tarixiy shart-sharoitdan kelib chiqib, "mutlaq zaruriyat" shaklida, ya'ni aniq namoyon bo'ladi.

Jamiyat qonunlarining aniq namoyon bo'lishi, qonun talablaridan kelib chiqadigan va unga mos keladigan natijalarga erishishi uchun zarur bo'lgan shart-sharoit yetilgan vaqtda ro'y beradi. Bunday hollarda tarixiy jarayonlarning kechishi, jamiyat a'zolarining yaratuvchanlik yo'lidagi sa'y-harakatlari tezlashuviga sabab bo'ladigan qonunlar talablarini o'z vaqtida anglab yetish va zaruriy shart-sharoitni ta'minlash asosida amalga oshadi. Bunga misol qilib biz totalitar tuzumdan demokratik tuzimga o'tish davrida davlatning isloxlarga boshchilik qilishini keltirishimiz mumkin, chunki bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida davlatning aralashuvisiz mavjud resurslardan samarali foydalanib bo'lmaydi; davlat esa iqtisodiyotini tartibga solib, talab hamda takliflarni o'zaro muvofiqlashtiradi va shu asosda iqtisodiyotni tanazuldan olib chiqadi.

Fuqarolik jamiyatining rivoj topishi uchun butun jamiyat uchun umumiy bulgan qadriyatlar shakllanishi talab etiladi. Bunday xolatda jamiyat a'zolari umumjamoaga xos qadriyatlarga tayanadilar va ular o'rtasida o'zaro ishonch xissi shakllanadi, natijada jamiyatda yagona ma'naviy asos vujudga keladi. Bu borada Birinchi Prezidentimiz I. Karimov jamiyat hayotini har tomonlama erkinlashtirish borasidagi strategik vazifala O'zbekistonda uzoqni ko'zlab amalga oshirilayotgan izchil siyosat natijasi, demokratik davlat, fuqarolik jamiyati barpo etish, bozor

iqtisodiyotini shakllantirish uchun barcha siyosiy va ijtimoiy kuchlarni birlashtirish prinsipial vazifa ekanligini ta'kidlaydi.

Biroq bozor munosabatlari rivoj topayotgan jamiyatlarga nazar tashlansa, ularda turli guruhar, ya'ni rang-barang etnik guruhlardan tortib turli professional uyushmalarning muttasil ko'payib borishiga guvoh bulish mumkin. O'z o'zidan ma'lumki, har bir guruhning o'z manfaati va maqsadlari mavjud. Fuqarolik jamiyati sharoitida ana shu guruhlarning maqsad va manfaatlari o'zaro to'qnash kelsada bu jarayon jamiyatning parchalanishiga emas, balki aksincha uning yaxlitligiga xizmat qiladi.

Ma'lumki, iqtisodiy taraqqiyot uchun ham fuqarolik jamiyati uchun xam xususiy mulk va o'rta qatlamning ahamiyati yuksak ekanligini olimlar inkor etishmaydi. Boshqacha aytganda bu qatlamsiz to'laqonli fuqarolik jamiyati bo'lishi mumkin emasligi ko'pgina manbalarda keltiriladi. Aynan O'zbekiston sharoitida bunday qatlamning shakllanishi jarayoni bilan fuqarolik jamiyatining rivojini qiyosiy taxlil etish talab etiladi.

Ma'lumki, bizning mamlakatimizda o'rta qatlamning shakllanishi jarayoni davom etmoqda. O'rta qatlam mulkdorlarning miqdori oshib bormoqda. Ayni vaqtda davlat tomonidan amalga oshirilayotgan chora - tadbirlar natijasida fuqarolik jamiyati xam rivojlantirilmoqda. Fuqarolik jamiyatining vujudga kelishining mumtoz ta'limotlarida rivojlantirilgan g'oyalar nuqtai - nazaridan bu yerda bir necha diqqat talab jihatlar mavjud. Xo'sh, klassik an'analarga ko'ra o'rta qatlam shakllangan va rivojlangan o'rta asrlarda davlat bilan o'rta sinf o'rtasida yuzaga kelgan qarama-qarshilik natijasida vujudga kelgan fuqarolik jamiyati bugungi sharoitda qay tarzda rivoj topadi? Shu va shunga o'xshash savollarga fuqarolik jamiyatining iqtisodiy asoslarini o'rganish asnosida javob berish mumkin.

Ma'lumki, erkin bozor munosabatlariga asoslangan demokratik jamiyatning asosini xususiy mulkdorlar tashkil etadi. Garchi xususiy manfaat individlarga xos bo'lib, yakka holdagi manfaatlarni ifoda etsada, aynan ana shu xususiy

manfaatlarning o'zaro va davlat bilan munosabatalarida yuzaga kelgan xodisalar asnosida umumiy qadriyatlar namoyon bo'ladi.

Jamiyatning asosini o'rta va mayda qatlam vakillari tashkil etar ekan, bu kesim vakillarining daromad manbai va oilalar xayotining asosiy vositasi xususiy mulkchilikka asoslangan iqtisodiy faoliyatdan iborat. Bu sanoat, savdo-sotiq, qishloq xo'jaligi, xizmat ko'rsatish va hokazo yo'nalishlardagi xususiy korxonalar, ijaraga beriladigan yer, ko'chmas mulk, daromad keltiradigan qimmatli qog'ozlar, foiz keltiradigan pul vositalari, yozuvchilar, shoirlar, kompozitorlar, kashfiyotchilar, ilmiy tadqiqotchilar va hokazolarga oid intellektual mulk asosida amalga oshiriladigan faoliyatdan iborat. Bu kesim o'zining asosiy faoliyatidan mahrum bo'lgan taqdirda nafaqat daromad, balki hayotiy muhim manbadan ayriladi. Shuning uchun mulk egalari o'z mulkini himoya etish uchun barcha zaruriy tashkiliy va huquqiy faoliyatni amalga oshirishadi. Ana shu nuqtai nazardan xususiy mulk fuqarolik jamiyati vujudga kelishining asosiy sabablaridan biri sifatida ko'rsatiladi. Aynan xususiy mulk asosida ijtimoiy munosabatlar jadallashadi, natijada esa jamiyat o'z-o'zini tashkil etadigan qudratli tizimga aylanadi.

Ma'lumki, xususiy mulk shaxslarning tadbirkorlik faoliyatini rag'batlantirish bilan mamlakatning umumiy iqtisodiy taraqqiyotiga xizmat qiladi. Buni dalillash uchun o'zbek olimi M.Sharifxo'jaev quyidagi omillarni ko'rsatib o'tadi:¹⁸

Birinchidan, xususiy mulk mulkni oqilona boshqarishni rag'batlantiradi. Boshqacha aytganda mulkdorlar o'z mulklarini asrash va uni ko'paytirish, daromad olish uchun muntazam faoliyat yuritishlari, doimo izlanishda bo'lishlari talab etiladi. Aks holda, mulkning qadrsizlanishi va oxir oqibatda mulkdorlar inqirozga yuz tutishlari mumkin. Agar mulkka nisbatan e'tibor yuqori bo'lib, u muntazam rivojlantirilsa daromadni yuksaltirish imkoni kengayib boradi.

Agar mulk davlatga daxldor bo'lsa yoki unga katta bir guruh birgalikda egalik qilsa, uni to'laqonli asrash imkoniyati susaya boradi. Sobiq tuzim davrida

¹⁸ Sharifxo'jaev M. O'zbekistonda ochiq fuqarolik jamiyatining shakllanishi. T.: "Sharq", 2003. –B.51.

davlat mulkiga nisbatan xo'jasizlikni bunga misol keltirish mumkin. Buni rivojlangan mamlakatlarda davlatga tegishli bo'lgan uy - joylarning ayanchli holatidan ham guvoh bo'lish mumkin.

Ikkinchidan, xususiy mulk odamlarni o'z moddiy imkoniyatlarini oshirish va undan samarali foydalanishga rag'batlantiradi. Xususiy mulkni rivojlantirishga bo'lgan ehtiyoj odamlarni o'z malakalarini oshirish, samarali ishlashga undaydi. Aynan shuning uchun iqtisodiyotni, xususan biznesni boshqaruvga ixtisoslashgan oliy o'quv yurtlari rivojlangan mamlakatlarda eng yuksak darajadagi ta'lim dargohlari bo'lib, ularda tahsil olish ulkan miqdordagi moliyaviy mablag'larni talab etadi. Bunday oliy dargohlarni bitirgan mutaxassislar uchun hamisha ish o'rinlari mavjud va tajriba oshgani sari maoshlar xam muttasil ko'tarila boradi.

Uchinchidan, xususiy mulkdorlar o'z resurslarini boshqalarning manfaatiga xizmat qildirish uchun xarakat qilishadi. Zero, boshqalarga samarali xizmat qiladigan mulk daromad keltiradi. Mulkning boshqalar uchun foydali ekanligi uning qadrini va mulk egasining mavqeini oshiradi. Shu nuqtai nazardan mulkdor tomonidan amalga oshiriladigan xatti-xarakat iste'molchilar tomonidan ma'qullansa mulkning qadri oshadi, aksincha bunday xatti-xarakat maqullanmasa, mulkning qadrsizlanishi ro'y beradi. Ko'rinib turganidek, mulkning holati fuqarolik jamiyatida o'ziga xos mezon vazifasini xam o'tamoqda. Aslida xar qanday mulkdor garchi o'z daromadini oshirish uchun faoliyat yuritsada, fuqarolik jamiyati sharoitida tadbirkor birinchi navbatda o'zining ana shu asl niyatini emas, balki jamiyatga sifatli xizmat ko'rsatishni birlamchi ekanligini namoyon etadi. Tom ma'nodagi fuqarolik jamiyatida daromad topish niyati ikkilamchi ahamiyat kasb etadi. Tadbirkorlikning fuqarolik jamiyati uchun muhim va zaruriy ekanligini mulkdorlar ham, davlat ham jamiyat ham teng darajada anglab yetishi bu yerda muhim bo'lgan jihatdir.

To'rtinchidan, xususiy mulk resurslardan kelajak uchun oqilona foydalanish va ularni asrash imkonini beradi. Mulkdorlar nafaqat bugungi kun, balki istiqboldagi o'zgarishlar va daromadni o'stirishni nazarda tutgan holda bugungi

kun va kelajakdagi manfaatlarni muvofiqlashtirishga harakat qilishadi¹⁹

Demak fuqarolik jamiyatining iqtisodiy asoslari deganda, jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlarda muhim o'rin tutgan xususiy mukchillika asoslangan iqtisodiy munosabatlar nazarda tutiladi. Tarixda aynan xususiy mulk va mulkdorlar qatlami fuqarolik jamiyatining rivojiga hissa qo'shgan. Bugungi kunga qadar aynan shu mulkdorlar qatlami nafaqat iqtisodiyotning, balki ijtimoiy munosabatlarni jadallashtiruvchi muxim omil bulib qolmoqda.

Fuqarolik jamiyatining iqtisodiy asoslarini yaratish uchun davlat oldida bir qator muhim masalalarni xal etish vazifasi turibdi.

*Birinchi*dan, mamlakatda iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish barobarida qonuniy asosda faoliyat yuritishga qodir bo'lgan o'rta mulkdorlar qatlamini shakllantirishni kuchaytirish zarur. Sho'ro tuzimini boshidan kechirgan mamlakatlarning aksariyatida, tadbirkorlik firibgarlik bilan hamoxang tushunilgan edi. Aslida bozor munosabatlari rivojlangan, ayniqsa sanoatlashgan mamlakatlarda jamiyatga eng ko'p foyda keltiruvchi, ayni vaqtda eng durust qatlam aynan mulkdorlar qatlami bo'lgan. Bu sharoitda davlat erkin faoliyatga sharoit yaratish bilan bir vaqtda ularni faqat va faqat qonun doirasida ish yuritish ko'nikmasini shakllantirish kerak.

*Ikkinchi*dan, jamiyatda erkin bozor munosabatlarini rivojlantirish barobarida ijtimoiy tabaqalashuvning qutblashuviga yo'l qo'ymaslik ham kuchli fuqarolik jamiyatini barpo etish davlat oldida turgan murakkab masalalardan biridir. Bunga borada O'zbekistonda davlat tomonidan "kuchli ijtimoiy himoya" tamoyili muvaffaqiyatli qo'linilib kelinmoqda.

*Uchinchi*dan, davlat ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishga mas'ul bo'lgan yagona institut bo'lish bilan bir qatorda bosh islohotchi sifatida erkin bozor munosabatlarini ham rivojlantirish vazifasini ham ado etishi zarur. Erkin bozor munosabatlari yangi sharoitdagi iqtisodiy faoliyatda turli noqonuniy xatti-

¹⁹ Sharifxo'jaev M. O'zbekistonda ochiq fuqarolik jamiyatining shakllanishi. "Sharq", 2003. –B.52.

xarakatlarga ham yo‘l ochishini nazarda tutadigan bo‘lsak, davlat oldida qanchalik murakkab vazifa turganligini anglash mumkin.

To‘rtinchidan, mamlakat iqtisodiy strategiyasini amalga oshirishni o‘z zimmasiga olish darajasida qudratli, ayni vaqtda fuqarolik jamiyatining negizini tashkil etadigan xususiy sektorni shakllantirish ham davlat oldida turgan ulkan vazifalardan biridir.

Ko‘rinib turganidek, fuqarolik jamiyatining iqtisodiy asoslari o‘ta murakkabligi bilan turli savollarni yuzaga keltiradi. Bu esa avvalo erkin bozor munosabatlari borasida yuzaga keladigan munozaralarga borib taqaladi. Fuqarolik jamiyati nuqtai nazaridan bozor sharoitida davlatning ahamiyati alohida e‘tibor talab etadi.

Davlat hamisha mustaqil, qudratli institut bo‘lib, kichik tadbirkorlik subyektlaridan tortib yirik korxonalariga qadar bo‘lgan tuzilmalarni tashkil etadi. Albatta, jamiyat va davlatning birlamchiligi xaqida gap ketganda albatta davlatning yetakchiligi e‘tirof etiladi. O‘tish davrida faqat davlatgina ulkan islohotlarga bosh bo‘lgan holda jamiyatda tub burilish yasashga qodir.

Albatta, jamiyatda ro‘y beradigan ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar islohotlarning pishib yetishiga sabab bo‘lishi mumkin. Ammo davlat Har qanday islohotni jadallashtirish yoki aksincha, unga to‘siq bo‘lishi mumkin. O‘zbekiston sharoitida davlat barcha sohalaridagi islohotlarga boshchilik qilmoqda. Ammo xususiy sektorni rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan islohotlarga qaramasdan mustaqil o‘rta qatlamning shakllanib bo‘lganligini e‘tirof etish mushkul. Jadallik bilan shakllanib kelayotgan o‘rta mulkdorlar qatlamida uyushmalarga a‘zolik madaniyati, fuqarolik jamiyati institutlariga birlashgan holda faoliyat yuritishga qodir mustaqil kuchga aylanganligini takidlash qiyin.

Ba'zi mamlakatlarda erkin bozor iqtisodi shakllanish jarayonida davlatning ahamiyati pasayib hususiy soha ommabop bo‘la borgani sari, ijtimoiy tabaqalanish kuchaygani holda odamlarning aksariyati butunlay xususiy sohaga o‘tib ketishi ro‘y berganligi kuzatilgan. Xususiy sohaning o‘ta rivojlanib ketishini fuqarolik jamiyati sifatida talqin etish noo‘rin. Boshqacha aytganda, xususiy soha

qanchalik rivoj topmasin, fuqarolik jamiyati institutlariga birlashgan holda o'z manfaatlarini davlat oldida himoya qilish ko'nikmasi shakllanmas ekan, bunday jamiyatni fuqarolik jamiyati deyish mumkin emas. Bundan tashqari, jamiyat a'zolarida aynan bozor qonuniyatlari negizida yangicha mohiyatga ega bo'lgan umumiy ko'nikmalar shakllanishi maqsadga muvofiq. Uz manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan faoliyat yuritayotgan fuqaro davlat organlari oldida o'ziga xos tarzda siyosat yuritadi. Bu ma'noda fuqaro o'zining xudbin manfaatlari yo'lida emas, balki jamiyatda ko'pchilikni tashkil etgan xususiy mulkdorlar manfaatlarining ifodachisi sifatida maydonga chiqadi. Bu yerda fuqaroning siyosatchiligi uning professional ma'nodagi faoliyatidan emas, balki jamiyat manfaatlarini ifodalashga qaratilgan fuqarolik burchidan kelib chiqadi.

Ma'lumki fuqarolik jamiyati kishilarning umumiy maqsadlari va vazifalari borasida o'zaro munosabatga kirishishlari va bu munosabatlarni tartibga solish zaruratidan vujudga kelgan xodisadir. U bozor qonuniyatlari tufayli ham emas, hokimiyatning buyrug'i bilan ham emas, balki jamoatchilikning tashabbusi asosida, erkin fuqarolardan tashkil topgan turli guruh va birlashmalarning muttasil faoliyati natijasi sifatida pishib yetilgan. Kishilar aynan ijtimoiy foydali faoliyat yuritish qobiliyatiga ega bolganliklari uchun ham fuqaro deb nomlanishadi.

Fuqarolik jamiyati rivojida so'zsiz bozorning ham, davlatning ham ahamiyati yuksak bo'lsada, ularni aralashtirib yuborish maqsadga muvofik emas. Zero davlat fuqarolik jamiyatisiz ham mavjud bo'la oladi, biroq fuqarolik jamiyati sharoitida davlat o'zgacha ko'rinish va usullarga ega bo'lgan institut sifatida namoyon bo'ladi.

Shundan kelib chiqqan holda ta'kidlash kerakki, bozor munosabatlariga o'tish bilan fuqarolik jamiyatini barpo etish ikki xildagi masala bo'lib, o'z maqsad va vazifalari nuqtai nazaridan ular bir-biriga aynan mos kelmaydi. Avtoritar boshqaruv bilan ham bozor munosabatlariga o'tish mumkin bo'lsa, bunday boshqaruv usuli bilan fuqarolik jamiyatiga o'tish aslo mumkin emas. Bu ikki vazifani bir-biri bilan aralashtirish iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishga

ham, demokratlashtirish jarayoniga ham xalaqit beradi. Demokratik islohotlar hamda fuqarolik jamiyatini rivojlantirishni erkin bozor munosabatlariga o'tish bilan umumlashtirish xudbinlikka yo'grilgan xususiy mulkchilik hissiyoti bilan fuqarolik hissiyotini aralashtirishni anglatadi. Aslida esa, bu masalada jiddiygina aniqlik talab etiladi. Har bir kishining xususiy mulkka egalik qilish huquqi, ko'pgina xollarda xususiy mulkka ega bo'lishgina fuqarolik jamiyatini shakllantirishga asos bo'ladi, deya tushuniladi. Aslida esa xususiy mulkka ega bo'lmagan, ishchi kuchidan iborat aholi jamiyatning aksariyat qismini tashkil etadi. Demak, bu borada faqatgina xususiy mulk emas, balki mulkdor bo'lmaganlarning manfaatlarini ifoda etuvchi fuqarolik jamiyati institutlarining mavjudligi xam fuqarolik jamiyatining iqtisodiy asoslarini tashkil etadi.

Fuqarolik jamiyatining iqtisodiy asoslari erkin bozor iqtisodiyoti bilan chambarchas bog'liqdir. Demokratik jamiyat boshqa erkinliklar barobarida o'z qonuniyatlari bilan taraqqiy topadigan ho'jalik tizimini takozo etadi. Faqat ana shu qonunlar asosidagina muvaffaqiyat bilan tadbirkorlik faoliyatini yuritish mumkin. Eng muhimi yakka holda bozor qonunlariga qarshi kurashish mushkul. Tadbirkorlarning turli xil uyushmalari, ya'ni fuqarolik jamiyati institutlari bu masalalarni xal etishni osonlashtiradi.

Jahon tajribasining ko'rsatishicha, davlat va bozor tadbirkorlik faoliyatiga nisbatan passiv holatda bo'lishi yoki unga yetakchilik qilishi mumkin. Albatta tadbirkorlik faoliyatiga yetakchilik qilish uchun guruhiiy va uyushmaviy sharoitlar mavjud bo'lishi kerak.

Jahon tajribasida parlamentar boshqaruv bilan uyg'un holda bozor fuqarolik jamiyatining iqtisodiy asosini muvaffaqiyatli tashkil etishi kuzatilgan. Aks holda jamiyat fuqarolik jamiyati emas, balki boylik orttirish va yashab qolish uchun o'zaro ayovsiz raqobatga kirishgan shaxslardan iborat qutblashgan ommaga aylanib qolishi mumkin. O'z xolicha bozor xar qanday turdagi hokimiyat bilan uyg'unlashishi mumkin. Chunki bozor sharoitida fuqarolar emas, balki moddiy mablag'larning aniq hisob-kitobi va foydani ko'paytirishni ko'zlagan kishilar xarakat qiladilar. Fuqarolik jamiyati qadriyatlarini mavjud bo'lmagan jamiyatda

bunday faoliyat osongina jinoiy biznes va “qora” iqtisodiyotning manbaiga aylanishi mumkin. Muvofiqlashtirilmagan yoki tartibga solinmaydigan bozor sharoitida ijtimoiy jihatdan tartibsizlik yoki boshboshdoqlikka yo‘l ochilishi ehtimoli mavjud.

Fuqarolik jamiyati mavjud bo‘lmagan sharoitda bunday bozor davlatning qattiq nazorati bilangina tartibga solinishi mumkin. Davlat organlarining korrupsiyaga aralashib ketishi ehtimoli yuksakligini hisobga oladigan bo‘lsak, erkin bozorning shakllanishi sharoitida ko‘pgina mansabdorlarning jinoiy to‘dalar ta'siri ostida tom ma'nodagi erkin bozorni shakllantirishga to‘skinlik qilishini kuzatish mumkin.

Ko‘rinib turganidek, fuqarolik jamiyati mavjud bo‘lmagan holatda bozorda beshafqat qonunlar hukm surishi kuzatiladi. Korrupsiya domiga tortilgan davlat mansabdorlari ko‘pgina xollarda qonunbuzarliklarga qarshi kurashga bardosh bera olmay qoladi. Davlat bunday boshboshdoqlikka qarshi kurashga intilar ekan, odatda fuqarolik institutlaridan foydalanmaydi va qaytadan avtoritar usul hamda qog‘ozbozlikka duchor bo‘ladi. Bu esa bozor munosabatlarining ko‘psonli ishtirokchilarining faoliyatiga salbiy ta'sir ko‘rsatadi.

Erkin bozor munosabatlariga o‘tishda kuchli hokimiyatga tayanish zarurligi haqida fikrlar mavjud. Kuchli hokimiyatning bozor munosabatlarini tartibga solishi turli talqinlarga ham sabab bo‘ladi. Zero, fuqarolik jamiyatida erkin bozor, siyosiy erkinliklar va demokratiya hamda jamiyatda yuzaga keladigan muammo va mojarolarni mustaqil sudlar vositasida hal etish nazarda tutiladi. Ma'lumki, bozorning erkinligi tabiiy ravishda yakkahokimlikka olib keladi va o‘z-o‘zini boshqarish qonuniyatini buzadi. Ba'zi mamlakatlarda bozorda yakkahokimlikka erishgan kompaniyalar davlat apparati bilan birlashgan holda fuqarolik jamiyatiga qarshi turishgan. Natijada bunday mamlakatlarda o‘tgan asrning birinchi yarmida sotsializmga nisbatan “yumshoqroq” bo‘lgan totalitar tizimlarning shakllanishi ro‘y bergan (Italiya, Germaniya). O‘z-o‘zini boshqarish qobiliyati kuchli bo‘lgan jamiyatlarda esa davlat fuqarolik jamiyati tarafiga o‘tib, yakkahokim kompaniyalarga qarshi harakat qilgan. G‘arbiy Yevropaning ko‘pgina

mamlakatlari tarixidan ma'lum bo'lishicha, erkin bozor munosabatlari sharoitida ko'zga tashlangan boshboshdoqlikka barham berish zarurati davlat tomonidan anglab yetilgan. Natijada an'anaviy mazmundagi erkin bozor munosabatlariga barham berilgan va davlat rang-barang ijtimoiy guruhlarining manfaatlarini himoya etish maqsadida, bozorni muvofiqlashtirish yo'liga o'tgan. Biroq, shuni alohida ta'kidlash kerakki, davlat tomonidan tartibga solinadigan bozor muvaffaqiyatga erishishi uchun mamlakatda ilgari erkin bozor munosabatlari mavjud bo'lgan bo'lishi zarur. Boshqacha aytganda, erkin bozor munosabatlari tajribasini boshidan o'tkazmagan, xususiy mulkka asoslangan bozor sharoitida erkin raqobatga asoslangan tadbirkorlik an'ana va ko'nikmalariga ega bo'lmagan mamlakatlarda davlat tomonidan bozor tartibga solinadigan bo'lsa, tom ma'nodagi bozor munosabatlarini rivojlantirish mushkul bo'ladi. Bunday mamlakatlarda tom ma'nodagi iqtisodiy elitaning shakllanishi ehtimoli juda kam bo'lib, iqtisodiy taraqqiyot to'laligicha davlatning zimmasida qolib ketadi. Bunday sharoitda mamlakat iqtisodiy taraqqiyotini o'z yelkasiga oladigan mulkdorlar jamiyatning aksariyatini tashkil eta olmaydi. Uning o'rniga davlat hokimiyati tomonidan boshqariladigan o'ziga xos yarim erkin bozor munosabatlari shakllanadi.

Xullas: Fuqarolik jamiyatining iqtisodiy asosini xususiy mulkka tayanadigan ko'p ukladli bozor iqtisodiyoti tashkil etadi. Shunday ekan fuqarolik jamiyatini barpo etishga intilgan har qanday mamlakatda o'rta mulkdorlar qatlamini shakllantirish jarayonini jadallashtirish zarur. Zero, o'tish davrida davlatning zimmasida bo'lgan ko'plab vazifalarni fuqarolik jamiyati rivojlanishi bilan aynan o'rta qatlam o'z zimmasiga oladi. Bu esa ixtiyoriy va ko'ngilli uyushmalar yordamida rivojlanadigan, sog'lom raqobatga tayanadigan bozor qadriyatlari ustuvor bo'lgan tom ma'nodagi fuqarolik jamiyatini rivojlantirishga asos bo'ladi.

II BOB “O'ZBEKISTONNING O'Z ISTIQLOL VA TARAQQIYOT YO'LI” ASARIDAGI BUNYODKOR G'OYALAR VA ULARNING YOSHLAR TARBIYASIGA TA'SIRI

2.1. “O'zbekiston kelajagi buyuk davlat” g'oyasining iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy va ma'rifiy asoslari va amaliyoti

Mustaqillikning qo'lga kiritilishi mamlakatimizning o'z taqdirini o'zi belgilashi bilan bir qatorda asriy imkoniyatlarini amalga oshirish uchun ham imkoniyat yaratdi. Istiqlol tufayli xalqimizning Vatanga, ona zaminga mehrli munosabati shakllandi. Mustaqillik tufayli Ona tilimiz, haqiqiy o'zbekona urf-odatlarimiz qayta tiklandi

Davlat mustaqilligiga erishilgandan keyin biz o'zimizning istiqlol va taraqqiyot yo'limizni tanlab oldik, bu esa O'zbekistonning qat'iy yo'lidir.

Bu jarayon O'zbekistonda mustaqillikning dastlabki kunlaridan boshlanib ketdi. Respublikaning Oliy Kengashi chiqargan qonunlarga tayangan holda shu jarayonning huquqiy negizi yaratildi. Respublikaning barcha fuqarolari va korxonalariga tashabbus hamda tadbirkorlikni rivojlantirish uchun teng imkoniyatlar berilgan. Bozor munosabatlarini bosqichma-bosqich rivojlantirish ta'minlanmoqda va bu jarayon hozirgi kunda ham davom etmoqda. Mulkchilikning xilma-xil shakllarini vujudga keltirish, raqobatni avj oldirish, boshqarishning ma'muriy-buyruqbozlik usullaridan qat'iyon voz kechish, iqtisodiy omillar va vositalarni keng joriy etish bozor munosabatlarning o'zagidir.

Bozor tarmoqlari majmuini shakllantirish yo'lida dastlabki qadamlar qo'yilmoqda. Bank tizimi qayta tashkil etilmoqda. Respublikaning Markaziy banki boshqaruv organlaridan mustaqil bo'lib qoldi. Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki va tijorat banklari tarmog'i vujudga keltirildi. Davlat moddiy-texnikaviy ta'minoti va qishloq xo'jalik mahsulotlari xarid qilish tizimi tubdan isloh etildi. Universal va ixtisoslashtirilgan tovar-xom ashyo birjalari, brokerlik

idoralari va savdo uylari ochildi. Dastlabki xolding va lizing kompaniyalari, sug'urta va auditorlik xizmatlari, yuridik tashkilotlar, bozor iqtisodiyoti sharoitida ishlay oladigan mutaxassislar tayyorlovchi markazlar paydo bo'ldi.

Davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish jarayonlarining huquqiy asoslari yaratildi va bu jarayonlar boshlandi. Natijada 1991-1992 yillar mobaynida davlat obyektlaridan ikki mingga yaqini boshqa mulkchilik shakllariga aylantirildi, shulardan taxminan 600 tasi xususiy mulk qilib, 70 tasi jamoa mulki qilib berildi, 80 tasi - sotib olish huquqi bilan ijaraga topshirildi, 200 tadan ko'proq inshoot aksionerlarga berildi.

Davlatga va idoralarga qarashli uy-joy fondini xususiylashtirish jarayoni jadal davom etmoqda. Hozirgacha 200 mingtadan ziyodroq kvartira fuqarolarga tekinga berildi yoki aholi tomonidan sotib olindi.

Bozor munosabatlari ishlab chiqilgan qoidalarga muvofiq qat'iy ravishda, ya'ni bosqichma-bosqich joriy etilmoqda. Bunda "shok terapiyasi" usullari mustasno qilinib, davlat imkoniyatlari hisobidan odamlarni, ayniqsa, aholining ijtimoiy nochor tabaqalari: yetim-yesirlar, bolalar, o'quvchilar, nafaqachilar, nogironlarni, yolg'iz onalar va kambag'al oilalarni ijtimoiy jihatdan muhofaza qilish bo'yicha oldindan choralar ko'rib borilmoqda.

O'zbekistonda qaror topayotgan ochiq-oydinlik va teng huquqli sheriklik qoidalariga asoslangan tashqi siyosatni xalqaro jamoatchilik va eng katta moliyaviy, bank tuzilmalari faol qo'llab-quvvatlamodalar. Yil mobaynida yetakchi xalqaro iqtisodiy va moliyaviy tashkilotlarning, yirik xorijiy firmalar va banklarning vakillari vujudga kelgan vaziyatni va hamkorlik istiqbollarni o'rganish maqsadida bir necha marta respublikamizda bo'ldilar. O'zbekistonning Jahon valyuta fondiga, Jahon bankiga, Yevropa tiklash va taraqqiyot bankiga qabul qilingani ana shu ishning yakuni bo'ldi. Respublikamizda Jahon bankining doimiy vakolatxonasi ish boshladi. Yevropa tiklash va taraqqiyot bankining vakolatxonasi ham ochildi.

Respublikaning Xalqaro moliya korporatsiyasiga, Xalqaro mehnat tashkilotiga, Jahon sog'liqni saqlash tashkilotiga va boshqa birlashmalarga a'zo

bo'lib kirishi to'g'risidagi masalalar hal qilindi. O'zbekiston yordam ko'rsatish obyekti sifatida Yevropa taraqqiyot va hamkorlik qo'mitasining ro'yxatiga kiritildi. Jahondagi 24 taraqqiy etgan mamlakat ana shu qo'mitaning a'zosi. Zarur oziq-ovqat mahsulotlari, dori-darmon va texnologiya uskunalari xarid qilish uchun O'zbekistonga kredit yo'llarini ochish to'g'risida hukumatlararo qarorlar qabul qilindi. Qo'shma korxonalar barpo etish, chet el banklarining bo'limlarini ochish to'g'risida ko'pgina firmalar bilan shartnomalar imzolandi.

O'zbekiston xorijiy sarmoyadorlarni boy imkoniyatlari bilangina emas, balki:

- avvalambor, respublikada ijtimoiy-siyosiy vaziyatning barqarorligi;
- iqtisodiy taraqqiyot istiqbollarning aniq-ravshanligi;
- respublikada o'tkazilayotgan iqtisodiy islohotlarning izchilligi;
- xorijiy sarmoyalar to'g'risidagi qonunlarning imtiyozli shartlari bilan ham o'ziga jalb etmoqda.

Ammo shuni qayta-qayta ta'kidlash kerakki, chet el sarmoyasi O'zbekistonga kelishining asosiy sharti respublikamizdagi barqarorlikdir.

Yana bir nihoyatda muhim ishimiz - aholining ijtimoiy nochor tabaqalarini himoya qilish. Bu masala aslo paysalga solib bo'lmaydigan eng asosiy vazifa bo'lib keldi va shunday bo'lib qoladi. Ijtimoiy muhofaza qilish vositasini takomillashtirish lozim bo'ladi. Bu vositani o'zgarib borayotgan sharoitlarga moslashtirib, narx-navoning o'sishiga va pulning qadrsizlanishiga tezda muvofiq holga kela oladigan qilish kerakligi asarda bayon qilingan. Shunday bir vosita zarurki, bunda aholining turmush darajasi turli iqtisodiy va ijtimoiy larzalarning ta'siridan puxta himoyalangan, kafolatlangan bo'lsin. Kishilarning ijtimoiy kafolatlarini yuridik jihatdan mustahkamlab qo'yadigan aniq-ravshan qonunlar va yangi normativ hujjatlar qabul qilish kerak.

Buning ma'nosi shuki, nafaqa bilan ta'minlash, talabalarga, ko'p bolali va kambag'al oilalarga haq to'lash tizimida ularning turmush darajasi byudjet vositasi va davlat kafolatlari orqali ham, turli xayriya jamg'armalari, korxonalar, tashkilotlar va xo'jaliklarning jamg'armalari orqali ham saqlab turilishi, ularga madad berilishi mustahkamlab qo'yilishi lozim.

Bozor munosabatiga o'tish davrida ijtimoiy soha – sog'liqni saqlash, ta'lim, madaniyat va san'at, shuningdek, ilm-fan ayniqsa mushkul ahvolda qolmoqda. Biz uchun tarixiy, madaniy, umuman, ma'naviy qadriyatlar, xalqimizning ruhini baland saqlash, yosh avlodni tarbiyalash eng asosiy vazifa bo'lib qolishi kerak va bu sohalar hisobidan mablag'larni tejay olmaymiz. Hozirgi murakkab davrda bu tarmoqlarni qat'iy qo'llab-quvvatlash, shu sohalarda ishlayotgan kishilar mehnatini munosib baholash, ularni ijtimoiy jihatdan puxta himoya qilish, moddiy imkoniyatlarini namoyon etish uchun shart-sharoitlarni vujudga keltirish zarur.

Mustaqil O'zbekiston Respublikasining bugun muhokama qilinadigan birinchi Konstitutsiyasi shu ezgu maqsadning huquqiy kafolati bo'lajak.

Biz o'z taraqqiyot yo'limizni Konstitutsiya asosida belgilab olishimiz lozim. Davlatimizning kelajagi, xalqimizning taqdiri ko'p jihatdan Konstitutsiyamiz qanday bo'lishiga bog'liq.

Tabiiyki, har qanday davlatning Konstitutsiyasi unda yashovchi xalqning irodasini, ruhiyatini, ijtimoiy ongi va madaniyatini aks ettiradi. Konstitutsiya xalqning siyosiy donoligi va tafakkuri mahsulidir. Birinchi Konstitutsiyamiz loyihasi ana shunday xalqchil qomus bo'lishiga ishonaman deb takidlangan. Sababi - uning loyihasi ustida taxminan ikki yil davomida ishladik. U ikki yarim oy mobaynida umumxalq muhokamasidan o'tdi, xalqning fikr xazinasini durdonalari bilan boyitildi, sayqal topdi.

Unda bu hujjatga amal qilib yashovchi fuqarolarning ahilligi, xalqimizga xos odamiylik, umuminsoniy qadriyatlarga ixlos kabi yaxshi sifatlar o'z aksini topadi, deb ishonamiz. Yurtimizga xos qardoshlik va do'stlik an'analari, o'zining boy va teran tarixiga ega bo'lmish xalqlarning o'zaro totuvligi va qo'shnichiligi prinsiplari ham loyihada muhim o'rin tutadi.

Yangi Konstitutsiyamizning ijobiy jihatlari, yangi tomonlari, avvalgi Konstitutsiyalardan farqlari nimalardan iborat? Avvalambor, bu Konstitutsiya o'zining tub mohiyati, falsafasi, G'oyasiga ko'ra yangi hujjatdir. Unda kommunistik mafkura, sinfiylik, partiyaviylikdan asar ham yo'q. Jamiki dunyoviy

ne'matlar orasida eng ulug'i - inson degan fikrni ilgari surdik va shu asosda "fuqaro - jamiyat - davlat" o'rtasidagi o'zaro munosabatning oqilona huquqiy yechimini topishga intildik.

Loyiha inson huquqlari va davlat mustaqilligi G'oyalariga sadoqat, hozirgi va kelajak avlodlar oldidagi yuksak mas'uliyatni anglash, o'zbek davlatchiligining tarixiy tajribasiga tayanish, demokratiya va qonuniylikni hurmatlash, xalqaro huquqning jahonda e'tirof etilgan qoidalarini tan olish, O'zbekiston fuqarolarining munosib hayot kechirishlarini ta'minlash, insonparvar huquqiy jamiyat barpo etish va, nihoyat, fuqarolar tinchligi va milliy hamjihatlikni kafolatlash kabi olijanob maqsadlarni ko'zladi.

O'zbekistonda davlat hokimiyatining birdan-bir manbai xalq bo'lib, davlat xalqning irodasini ifodalaydi, uning manfaatlariga xizmat qiladi.

Biz so'nggi yetmish yil ichida davlatga qaramlik va sig'inish holatida yashadik. Mamlakatning, undagi barcha boyliklarning, mulkning egasi davlat, deb hisoblab keldik. Ana shu masalada ham Konstitutsiyada tub burilish yasalgan. Ya'ni "davlat, uning idoralari va mansabdor shaxslar jamiyat hamda fuqarolar oldida mas'uldirlar". Sobiq totalitar davlat sharoitida bunday fikrni hech kim xayoliga ham keltira olmasdi. Endilikda inson, uning hayoti, erki, sha'ni, qadr-qimmatini va boshqa ajralmas huquq hamda erkinliklari muqaddas sanalib, ular davlat tomonidan kafolatlanadi.

Huquqiy davlatning asosiy belgisi - barcha fuqarolarning qonun oldida tengligi, Konstitutsiya va qonunlarning ustunligi ta'minlanishidir. Konstitutsiya va qonunlarning ustunligi prinsipi shuni anglatadiki, bunda barcha joriy qonunlar va me'yoriy-huquqiy hujjatlar Konstitutsiya asosida va unga muvofiq bo'lishi talab etiladi. Ulug' bobokalonimiz Amir Temur aytganlariday qaerda qonun hukmronlik qilsa, shu yerda erkinlik bo'ladi.

Nihoyat, Konstitutsiya maxsus tarzda muhofaza qilinadi. Aynan shu maqsadda O'zbekiston tarixida birinchi marta Konstitutsiyaviy sud joriy etilmoqda.

O'zbekiston o'z milliy manfaatlariga mos keladigan faol tashqi siyosat yuritishi, bunda xalqaro huquqning teng huquqli subyekti sifatida harakat qilishi Konstitutsiyada mustahkamlab qo'yilgan. O'zbekistonning tashqi siyosati davlatlarning suveren tengligi, kuch ishlatmaslik yoki kuch bilan tahdid qilmaslik, chegaralarning daxlsizligi, nizolarni tinch siyosiy vositalar bilan hal etish, ichki ishlarga aralashmaslik qoidalariga va xalqaro huquqning umum e'tirof etgan boshqa qoidalari va normalariga amal qilish zaminiga qurilgan.

Inson va fuqarolarning huquqlari hamda erkinliklari sohasida Konstitutsiyada talaygina ijobiy jihatlar mavjud. Bu borada loyiha inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining deyarli barcha prinsipial qoidalarini o'ziga singdirgan. Insonning hayoti, shaxsi va erkinligi daxlsizdir.

Fuqarolar bilan davlat o'zaro huquqlar va burchlar orqali uzviy bog'liqdirlar. Fuqarolarning huquqlari va erkinliklari daxlsiz bo'lib, hech kim ularni sudning qarorisiz mahrum etishi yoki cheklashi mumkin emas. Ayni vaqtda fuqarolarning o'z huquq va erkinliklarini amalga oshirishlari boshqa fuqarolarning, davlat va jamiyatning qonuniy manfaatlariga zid bo'lmasligi lozim.

Asosiy qonun loyihasining "Jamiyat va shaxs" deb nomlangan uchinchi bo'limida jumhuriyat iqtisodiyoti mulkchilikning xilma-xil shakllari tengligini ta'minlagan holda bozor munosabatlarini shakllantirishga qaratilgan tadbirlarga tayanishi, xususiy mulkning himoya qilinishi ta'kidlanadi. Maqsad - iqtisodiyotni o'ta markazlashtirmaslik hamda yakkahokimlikka barham berishdan, korxonalar, tashkilotlar va xususiy tadbirkorlarning mustaqilligini kengaytirishdan iborat. Davlatning xo'jalik faoliyatiga yakkahokimchilik tarzida aralashuviga chek qo'yiladi, iqtisodiy faoliyat erkinligi ta'minlanadi.

Yangi hujjatda ishbilarmonlik tashabbusiga va erkin bozor munosabatlariga keng yo'l ochilgan. O'z mulkiga o'zi xo'jayin bo'lgan kishilar esa ijtimoiy va siyosiy barqarorlikning asosiy tayanchi bo'lib xizmat qiladilar.

Davlat siyosiy partiyalarning, jamoat birlashmalarining huquqiy manfaatlarini muhofaza etadi, ularga ijtimoiy turmushda ishtirok etish uchun teng huquqiy erkinlik yaratib beradi. Ayni vaqtda yakkahokimlikka intilishlarga va bir

mafkura imtiyozli bo'lib qolishiga yo'l qo'ymaslik kerak. Zero, O'zbekistonning davlat mustaqilligiga, hududiy yaxlitligiga va xavfsizligiga raxna soladigan, milliy va diniy adovatni avj oldiradigan, urush va zo'ravonlikni targ'ib qiluvchi, Konstitutsiyaviy tuzumga, xalqning demokratik erkinliklariga va ma'naviyatiga tajovuz qiladigan partiyalar va jamoat harakatlari qonundan tashqari bo'lishi lozim.

Konstitutsiya loyihasida hurfikrlilik, vijdon va diniy e'tiqod erkinligi masalalariga katta e'tibor berilgan. Dinning xalqimiz ma'naviyatiga, ruhiyatiga o'tkazayotgan hayotbaxsh ta'sirini ko'rib turibmiz. Dinning tarbiyaviy ahamiyati yanada ko'proq bo'lishi lozim. Har bir inson o'z e'tiqodiga va dinga amal qilish yoki hech qaysi dinga e'tiqod qilmaslik huquqiga ega.

Davlat hokimiyatining tashkil etilishi va faoliyat tartibi vakolatlarning taqsimlanish prinsipi asosida amalga oshiriladi. Qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyati - davlatning uchta asosiy tayanchidir.

Loyihada ana shu uchta hokimiyat idoralarining o'zaro uyg'un faoliyat vositalari, shuningdek, bu idoralarning o'zaro bir-birini tiyib turish tizimini vujudga keltiruvchi qoidalar mustahkamlandi. Loyihada O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining, O'zbekiston Prezidentining, Vazirlar Mahkamasining, sud hokimiyati idoralari bo'lmish: Konstitutsiyaviy sud, Oliy sud va Oliy xo'jalik sudining vakolatlari mukammal belgilab qo'yilgan.

Asosiy qonun loyihasida O'zbekistonning tarkibiga kiruvchi Qoraqalpog'iston Respublikasiga alohida bob bag'ishlandi.

O'zbekiston Qoraqalpoiston Respublikasining maqomini tan oladi va uning suverenitetini muhofaza etadi. O'zbekiston bilan QoraqalpoQistonning o'zaro munosabatlari har ikki respublika o'rtasida tuziladigan shartnomalar va kelishuvlar asosida tartibga solinadi. O'zbekiston Konstitutsiyasi va qonunlari Qoraqalpog'iston hududida ham majburiydir.

Shuni alohida ta'kidlashimiz kerakki, yangi Konstitutsiya loyihasini yaratishda Birlashgan Millatlar Tashkiloti hujjatlariga, Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasiga, xalqaro huquqning barcha e'tirof etgan qoidalariga

qat'iy amal qilindi. Shuningdek, rivojlangan demokratiya mamlakatlari hisoblanmish Amerika Qo'shma Shtatlari, Yaponiya, Kanada, Germaniya, Fransiya, Portugaliya, Italiya, Shvetsiya, Turkiya, Ispaniyaning hamda Sharq mamlakatlari Hindiston, Pokiston, Misr davlatlarining Konstitutsiya tajribasidan ijodiy foydalanildi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining loyihasi - zo'r siyosiy, huquqiy va xalqaro ahamiyatga molik hujjatdir. U jahon maydonida yangi suveren davlat - O'zbekiston davlati dunyoga kelib, faol yashayotgani va mehnat qilayotganidan darak beradi.

2.2 I.A.Karimov asarining g'oyaviy tarbiyaviy mazmuni va uni o'rganish metodikasi

Mustaqillik tufayli mamlakatimizda bozor munosabatlarining qaror topishi, demokratik qadriyatlarning tiklanishiga asos bo'ldi. Har bir davlat milliy mustaqilligini mustahkamlash bilan bir qatorda jamiyatda ma'naviy axloqiy qadriyatlarning mustahkam qaror topishi masalasiga e'tibor qaratadi. O'zbekistonning o'z istiqbol va taraqqiyot yo'li asari mustaqillikning dastlabki davrida jamiyatda yuz berayotgan ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlarni, mustaqillik tufayli qaror topayotgan demokratik qadriyatlarning tub mihiyatini ochib berishga qaratilgan metodologik qo'llanma hisoblanadi.

Mazkur asar mustaqil O'zbekistonni rivojlantirishda ma'naviy-axloqiy konsepsiyani yaratilishida muhim ahamiyatga ega sanaladi.

O'zbekistonni yangilash va rivojlantirishning o'z yo'li 4 ta asosiy negizga asoslanadi.²⁰ Bular:

- Umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik
- Xalqimizning ma'naviy merosini mustahkamlash va rivojlantirish
- Insonning va imkoniyatlarni erkin namoyon qilishi
- Vatanparvarlik

²⁰ I.A. Karimov O'zbekiston buyuk kelajak sari. T: "O'zbekiston", 1998. –B.56.

Jamiyat rivojlanish tendensiyalarini belgilashda umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik g'oyasi muhim ro'l o'ynaydi. Mustaqillikning ilk kunlaridan boshlab mamlakatimizda adolat tenglik axil qo'shnicilik insonparvarlik masalasi8ga alohida e'tibor qaratila boshlandi. O'zbekistonni rivojlantirish va yangilashdagi oliy maqsad ana shu an'analarni qayta tiklash, ularga yangi mazmun bag'ishlash zaminimizda tinchlik va demokratiya, faravonlik, madaniyat, vijdon erkinligi maslasini qaror topishiga e'tibor qaratildi.

Yuksak ma'naviyatli avlodni tarbiyalashda insonparvarlik g'oyasi muhim ahamiyatga ega sanaladi. Insonparvarlik bu o'zbek xalqining milliy ruhiyatini ifodalaydi. Mazku asar orqali Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov jamiyatga sog'lom fikrlovchi yangi avlod to'lqinini yaratishda insonparvarlik g'oyasining o'rni nechog'lik muhim ekanligini tarixiy tahlil qilish orqali aniq ochib bergan.

Mazkur asarda inson huquqlari va demokratiya singari umumbashariy qadriyatlar respublikamizning milliy davlatchilik manfaatlariga, xalqimizning o'ziga xosligiga uning ananalariga mosligi tahlil qilingan.

O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li asarining muhim g'oyalaridan yana bir bu Xalqning ma'naviy ruhini mustahkamlash va rivojlantirish O'zbekistonda davlat va jamiyatning eng muhim vazifasi sifatida qaratilgan.

Xalqning ma'naviy ruhini mustahkamlash va rivojlantirish – O'zbekistonda davlat va jamiyatning eng muhim vazifasidir. Ma'naviyat shunday qimmatbaho mevaki, u bizning qadimiy va navqiron xalqimiz qalbida butun Insoniyatning ulkan oilasida o'z mustaqilligini tushinib yetish va ozodlikni sevish tuyg'usi bilan birgalikda yetilgan. Ma'naviyat insonga ona suti, ota namunasi, ajdodlar o'giti bilan birga singadi. Ona tilining buyuk ahamiyati shundaki u ma'naviyat belgisi sifatida kishilarni yaqin qilib jipislashtiradi. Tabiatga yaqinlik, jonajon o'lkaning benihoya go'zaligidan bahramand bo'lish ma'naviyatga oziq beradi, kuchaytiradi. Ma'naviyat o'z xalqining tarixini, uning madaniyati va vazifalarini chuqur bilish va tushunib yetishga suyangandagina quduratli kuchga aylanadi. Tarixga murojat qilar ekanmiz, bu xalq xotirasi ekanligini nazrda tutishimiz kerak. Xotirasiz

barkamol kishi bo‘lmaganidek o‘z tarixini bilmagan xalqning kelajagi ham bo‘lmaydi.²¹

Ma’naviyat – taqdirning ehsoni emas. Ma’naviyat inson qalbida kamol topishi uchun u qalbdan va vijdonan, aql va qo‘l bilan mehnat qilishi kerak. Bu xazina insonga hayotda barqarorlik bag‘ishlaydi, uning qarashlari shunchaki boylik ortirish yo‘lida kun ko‘rishga yo‘l qo‘ymaydi, fojelalar vaqtida omon saqlab qoladi va moddiy qiyinchilik kunlarida irodani mustahkamlaydi. Xalqimizning xotirasi ajoyib nomlarga boy. Butun jahonga mashhur bo‘lgan Beruniy, Al-Xorazmiy, Ahmad Yassaviy, Ulug‘bek, Navoiy, va boshqa ko‘pgina allomalar ma’naviyati keng va ayni vaqtda qismati og‘ir bo‘lgan siymolardir. Ular o‘zlarini haqiqatga tashna va o‘zi haqiqat bo‘lgan xalqqa bag‘ishladilar. Buyuk ajdodlarimizning ulug‘ nomlari, xalq xotirasi va uning taqdiri munosib davom etishiga loyiqdir.

Oldin odamlarga moddiy boylik berish, so‘ngra ma’naviyat to‘g‘risida o‘ylash kerak, deydiganlar haq bo‘lmasalar kerak. Ma’naviyat – insonning, xalqning jamiyatning davlatning kuch-qudratidir. U yo‘q joyda hech qachon baxt-saodat bo‘lmaydi. Nafaqqat ko‘hna tarix, balki yangi tarix ham buning ko‘plab misollarni beradi.²²

Insonning o‘zi va o‘z oilasining baxt-saodati yo‘lida mehnat qilishga shaxsan tayyor ekanligi uning ichki imkopniyatlarini tashkil etadi. Bizning ko‘lamli ijtimoiy-iqtisodiy niyatlarimiz xalqimizning mehnatsevarligidan kelib chiqadi. Har bir fuqaroning mustaqil davlat bilan mag‘rurlanishi uning o‘z davlatining mustahkamlanishi va gullab-yashnashi uchun shahsiy hissa qo‘shishga tayyorligidandir. Faqat mana shundagina fuqaro davlatning ishonchli tayanchiga aylanadi.

O‘zbekiston Respublikasi birinchi prezidenti I.A.Karimovning O‘zbekistonning o‘z istiqlol va taraqqiyot yo‘li asri mustaqillikning dastlabki

²¹ I.A. Karimov O‘zbekiston buyuk kelajak sari. T: “O‘zbekiston”, 1998. –B.60 .

²² I.A. Karimov O‘zbekiston buyuk kelajak sari. T: “O‘zbekiston”, 1998. –B.63.

yillarida O'zbekistonning rivojlanishi va taraqqiyoti uchun muhim metadologik manba bo'lganligini e'tirof etishimiz zarur. milliy mustaqilligining qo'lga kiritgandan so'ng, milliy davlatchiligimizni yuksak taraqqiy ettirish, jahon sivilizatsiyasida munosib o'ringa ega bo'lish masalasiga va xalqimizning yillar davomida cheklangan asriy orzularini ushaltirishga alohida e'tibor qaratildi

Mamlakatimiz mustaqil taraqqiyot strategiyasining bosh g'oyasi bu - xalqimiz uchun munosib bo'lgan erkin, farovon hayotni barpo qilish va uni mutassil rivojlantirib borishdan iboratdir. O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A. Karimov tomonidan mustaqillikning ilk yillarida yurtimizda demokratik, fuqarolik jamiyatini barpo qilish maqsadlari belgilab olindi.

O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimovning "O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li" asarini ijtimoiy-falsafiy tahlil qilish orqali mustaqillik davri mamlakatimizdagi mavjud ijtimoiy siyosiy vaziyatni tahlil qilishga va yangi taraqqiyot nazariyalarini ishlab chiqishda muhim metadologik manba sifatida qaraladi. Bugungi kunda mamlakatimiz olimlari tomonidan O'zbekiston Respublikasi taraqqiyotini falsafiy tahlil qilishda mazkur asardan keng foydalanilmoqda.

Mazkur asarda O'zbekistonning chinakam mustaqilligiga erishishdan iborat o'z yo'li respublikani rivojlantirishning asosiy o'ziga xos xususiyatlari va shart-sharoitlarini har tomonlama falsafiy jihatdan asoslanganligini ko'rishimiz mumkin.

Avvalo, u aholining milliy-tarixiy turmush va tafakkur tarzidan, xalq an'analari va urf-odatlaridan kelib chiqadi. Chuqur ildizi o'tmishdagi an'anaviy jamoa turmush tarziga borib taqaladigan kollektivchilik asoslari O'zbekiston xalqiga tarixan xosdir. Kattalarni hurmat qilish, oila va farzandlar to'g'risida qamxo'rlik qilish, ochiq ko'ngillilik, millatidan qat'i nazar odamlarga xayrixohlik bilan munosabatda bo'lish, o'zgalar kulfatiga hamdard bo'lish va o'zaro yordam tuyg'usi kishilar o'rtasidagi munosabatlarning me'yori hisoblanadi. O'zbeklar diyoriga, o'z Vataniga mehr-muhabbat, mehnatsevarlik, bilimga, ustozlarga, ma'rifatparvarlarga nisbatan alohida hurmat-ehtirom - O'zbekiston aholisiga xos

fazilatlardir. Ichki va tashqi siyosatni ishlab chiqib, amalga oshirish chog'ida islom dinini e'tiborga olish muhim ahamiyatga ega. Odamlarning turmush tarzida, ruhiyatida, ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni shakllantirishda, islomga e'tiqod qiluvchi xalqlar bilan yaqinlashish istagida ham shu omil namoyon bo'lmoqda.

Mazkur mintaqaning qadimiy tarixi va madaniyati, bunda yashab o'tgan Sharq mutafakkirlari va faylasuflarining jahon madaniyatini rivojlantirishga qo'shgan G'oyat katta hissalar ham bu yerda yashayotgan odamlar turmushining barcha tomonlariga sezilarli ta'sir o'tkazmoqda. O'tmishdagi allomalarning bebaho merosi qanchadan-qancha avlodlarning ma'naviy-ruhiy ongini va turmush tarzini shakllantirgan edi va u hamon ta'sir ko'rsatmoqda.

Respublikadagi o'ziga xos demografik vaziyat - G'oyat muhim xususiyatlardan biridir. Jumhuriyatimizda aholi va mehnat resurslari har yili yuksak sur'atlar bilan o'sib bormoqda. Aholining yarmidan ko'prog'i qishloq joylarda yashaydi va asosan dehqonchilik bilan shug'ullanadi. Aholi tarkibida 60 foizdan ko'prog'i bolalar, o'smirlar, 25 yoshgacha bo'lgan yigit-qizlar.

O'z ajdodlari qadimdan yashab kelgan joylarga bog'langanlik, ko'chib yurishga moyillikning yo'qligi respublika aholisiga xos xususiyatdir.

Respublikaning yana bir xususiyati - milliy tarkibining o'ziga xosligidir. Etnik tarkibda tub aholi ustun mavqeni egallaydi. Shu bilan bir vaqtda respublika hududida o'z madaniyati va an'anasiga ega bo'lgan yuzdan ziyod millat vakillari yashab turibdi. O'zbekistonning milliy-madaniy jihatdan G'oyat rang-barangligi milliy o'zligini anglash va ma'naviy qayta tiklanishning kuchayib borishi bilan uzviy birlikda jamiyatni yangilash, uni ochiq jamiyatga aylantirish uchun qudratli omil bo'lib xizmat qiladi va respublikaning jahon hamjamiyatiga qo'shilishi uchun qulay sharoitlarni vujudga keltiradi.

Respublika qulay geostrategik mavqega ega. Tarixan hozirgi O'zbekistonning hududi shunday joy bo'lganki, bu yerda juda ko'hna savdo yo'llari (mashhur Buyuk Ipak yo'li) tutashgan, jo'shqin tashqi aloqalar va turli madaniyatlarning bir-birini o'zaro boyitishi jarayoni kechgan. O'ziri kunda O'zbekiston o'zining mustaqil energetika va suv tizimlariga ega bo'lgan sobiq

sovet O'rta Osiyosining markazida turibdi, ko'pgina masalalarda respublikalar o'rtasidagi bog'lovchi bo'g'in bo'lib xizmat qilmoqda va xorijiy mamlakatlar bilan munosabatlarni rivojlantirishda tobora faol rol o'ynamoqda.

O'zbekistonda islohotlarni amalga oshirish yo'llari va yondashuvlarini tanlashga tabiiy-iqlim sharoitlarining o'ziga xosligi belgilovchi ta'sir o'tkazmoqda. Respublika qishloq xo'jaligi aksariyat sun'iy sug'orishga va sug'orma dehqonchilikka asoslanadi. O'zining suv imkoniyatlari juda cheklangan. Qishloq xo'jalik ishlab chiqarishi, butun xalq xo'jaligi tarkibida paxtachilik yetakchi o'rin tutadi. O'zbekiston mustaqil O'rta Osiyo respublikalari orasida G'oyat katta eksport imkoniyatiga ega bo'lgan juda muhim strategik xom ashyo - paxta va undan tayyorlangan mahsulotni yetishtiruvchi hamda yetkazib beruvchi asosiy respublikadir. Iqlim sharoitlari meva-sabzavot mahsulotlari, pilla va boshqa G'oyat qimmatli qishloq xo'jalik xom ashyosini nafaqat o'z ehtiyojlarini qondirish uchun, balki boshqa mamlakatlarga yetkazib berish uchun ham zarur miqdorda yetishtirishni ta'minlaydi.

O'zbekiston respublikaning siyosiy va iqtisodiy mustaqilligini himoya qilish imkonini beradigan yetarli potensialga ega. Yer bag'rining G'oyat qimmatli mineral xom ashyolarga boyligi chuqur tarkibiy o'zgartishlarni amalga oshirish, respublikaning jahon bozoriga chiqishini ta'minlaydigan tarmoqlarni rivojlantirish imkonini bermoqda. Shu jihatdan xalq xo'jaligining asosan xom ashyo yetishtirishga yo'naltirilganligini bartaraf etish va shu sababli iqtisodiyot tuzilmalari haddan tashqari bir tomonlama rivojlanganligiga, sobiq markaz o'tkazib kelgan yakkahokimlik siyosatining natijasi bo'lmish qaramlikka, ya'ni texnologiya va resurs jihatdan boshqa respublikalarga qaram bo'lib qolishga barham berish hal qiluvchi ahamiyat kasb etmoqda.

Keyingi o'n yillar mobaynida ma'lum qadriyatlarga ega bo'lgan kishilarning muayyan ijtimoiy ongi shakllanganligini ham e'tiborga olmaslik mumkin emas. Bir tomondan, bu ijtimoiy tenglikka, kafolatlangan mehnat qilish huquqiga, yalpi bepul ta'lim va tibbiy xizmatga qat'iy tarafdorlikka intilishida namoyon bo'lmoqda. Ikkinchi tomondan esa, yakkahokimlikdan

iborat ma'muriy-buyruqbozlik tizimi keltirib chiqargan insonni mulkka egalikdan va xo'jayinlik tuyqusidan begonalashtirilganligi, tayyorga ayyorlik ruhiyati yuzaga keltirilganligida ko'rinmoqda.

Yuqorida qayd etilgan o'ziga xos shart-sharoitlar ham alohida, ham birgalikda hozirgi bosqichda O'zbekiston ichki va tashqi siyosatining o'ziga xos xususiyatlarini belgilab beradi.

Yangilanish va ijtimoiy taraqqiyotning o'zimiz tanlagan yo'li - murakkab jarayon bo'lib, respublika ijtimoiy turmushining iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy, ma'naviy-madaniy va boshqa barcha sohalarini qamrab oladi. Bu yo'l mustaqil O'zbekiston ichki va tashqi siyosatining umumiy strategiyasini belgilab beradi.

O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimov o'zining "Kuchli davlatdan kuchli jamiyat sari" asarida, "Biz XXI asrda yashaydigan yangi uyimizning poydevorini qurishni boshladik, xolos. "O'zbekiston yangi asr boshida" degan uzoq muddatga mo'ljallangan, keng qamrovli rivojlanish dasturini ishlab chiqish va uni hayotga tadbiiq etish vaqti keldi.

Bu dasturda har bir fuqaro, har bir vatandoshimizning bugungi va kelajak manfaatlari o'z ifodasini topishi lozim", - deydi. Binobarin, kuchli davlatdan kuchli jamiyatga o'tishning asosiy vositasi bo'lgan milliy g'oya ana shu dasturning asosiy negizlaridan biridir. Unda ilgari surilgan g'oyalar mamlakatimiz kuchli davlatdan, jahon tan olgan kuchli jamiyatga o'tishining, demokratiya yo'lidagi taraqqiyotining ob'ektiv zaruriyati, qonuniy hosilasi, millat va etiqodidan qat'i nazar, O'zbekiston fuqarolarining maqsad muddaolari ifodasidir.

Kuchli davlatdan kuchli jamiyatga o'tishda ijtimoiy-tarixiy jarayon sifatidagi o'tish davri ijtimoiy voqelikning ajralmas qismi hisoblanib, u tarixiy jarayonda turlicha: tadrijiy (evolyutsion) va inqilobiy (revolyutsion) shaklda namoyon bo'ladi. O'zbekiston va boshqa bir qator rivojlangan davlatlar tadqiqotchilarining ta'kidlashicha, ijtimoiy borliq rivojida evolyutsion shakl muhim bo'lib, ijtimoiy bo'hronlar esa jamiyat hayotiga yot hodisadir. Mafkuraviy jarayonlar o'tish davrida ikkinchi darajali rol o'ynamaydi, balki tarixiy taraqqiyotning mohiyatini belgilovchi muhim omillardan biri hisoblanadi.

O'zbekistonda kuchli davlat tizimi jahon andozasiga mos keladigan va milliy qadriyatlarni o'zida mujassam etgan demokratik jamiyat shakllanishini ta'minlaydi. Kuchli jamiyat tushunchasi demokratik jamiyat tushunchasi bilan uzviy bog'liqdir. Ayni paytda ular o'rtasida tafovut ham mavjud. Har qanday kuchli jamiyat demokratik jamiyat bo'la olmaydi, aksincha, demokratik tamoyillarga asoslangan jamiyatgina kuchli jamiyat bo'la oladi. Shu o'rinda aytish mumkinki, kuchli jamiyat demokratik tamoyillsiz mavjud bo'la olmaydi.

Kuchli davlatdan kuchli jamiyatga o'tish nazariyasining asoschisi bo'lgan O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimov fikrlaridan xulosa qiladigan bo'lsak, buning uchun qo'yidagi shart-sharoitlar mavjud bo'lishi lozim.

Birinchi, qonun ustuvorligi, fuqarolarning qonunlarga so'zsiz itoat etishi.

Ikkinchi, boy milliy ma'naviy merosimizga tayanish.

Uchinchi, jamiyat iqtisodiy hayotini erkinlashtirish va demokratlashtirish.

To'rtinchi, kishilarning erkinligi va manfaatlarini himoya qilish.

Beshinchi, demokratik jamiyat shakllanishi jarayonida nodavlat, notijorat tashkilotlarning, jamoat birlashmalarining rolini oshirib borish.

Oltinchi, demokratik jamiyat barpo etishda mahalla ijtimoiy institutining rolini oshirib borish.

Yettinchi, demokratik jamiyat shakllanishi jarayonida aholini kuchli ijtimoiy himoyalash va adolat tamoyilining qaror topishi.

O'zbekistonda milliy davlatchilikning qaror topishi va takomillashuvi bir qator ijtimoiy-siyosiy muammolar bilan uzviy bog'liq bo'ladi. Mustaqil O'zbekistonda millatlararo munosabatlarning hal qilinishi, diniy qadriyatlarimizning tiklanishi, o'zbek tiliga davlat tili maqomi berilishi va boshqalar, shubhasiz, mamlakatimizda kuchli jamiyat shakllanishini ta'minlovchi muhim va tarixiy ahamiyatga molik omillardir.

Demokratik davlat, kuchli jamiyat shakllanishida milliy qadriyatlarimizning tiklanishi ham asosiy o'rinlardan birini egallaydi. O'zbek tiliga davlat tili maqomi berilishi mamlakatimiz tarixida muhim voqeadir. "Zero,

o'z xalqining tarixini, qadriyatlarini, tilini, istiqbol manfaatlarini bilmagan, qadrlamagan, millat manfaatlari uchun jon fido qilishga tayyor bo'lmagan kishilarda milliy g'urur ham bo'lishi mumkin emas”²³.

Darhaqiqat, til - millat, milliylik mavjudligining sharti, ma'naviy rivojlanishining asosidir. Ijtimoiy voqelikni bilish muayyan ijtimoiy tushunchalarsiz amalga oshmaydi. O'z navbatida bunday tushuncha va ijtimoiy-falsafiy kategoriyalar so'z, til asosida yuzaga keladi.

Shu nuqtai nazardan xalqimizning milliy tiklanish borasidagi harakati O'zbekiston mustaqillikni qo'lga kiritgan dastlabki kunlardan boshlab, dinimizga va tilimizga qaytish, uni tiklash, ijtimoiy mavqeiini oshirish uchun kurashdan boshlanganligi ham, mamlakatimizda ilk demokratik tamoyillarni joriy etish, kuchli jamiyatni qaror toptirish jarayoni bilan bog'liq bo'lganligidan dalolat beradi. Milliy ong, yangicha tafakkur tarzisiz milliy g'oya va mafkura mavjud bo'la olmaydi. Demokratik jamiyat ijtimoiy ong va tafakkurning demokratlashuvini taqozo qiladi.

O'zbekistonda shakllanayotgan demokratik davlat, kuchli jamiyat mafkura bilan bir qatorda siyosiy omillarga ham bog'liqdir. Siyosiy demokratiyaning ravnaqi va siyosiy tizimni demokratlashtirish mustaqil O'zbekiston taraqqiyoti hozirgi bosqichining ustuvor yo'nalishlaridan biridir. Mamlakatimizda siyosiy hayotni doimiy, tizimli va tadrijiy ravishda erkinlashtirib borish davlatimiz rahbarining doimiy diqqat markazida ekanligini alohida ta'kidlasak mubolag'a bo'lmaydi. “Siyosiy sohani erkinlashtirish borasida, - deb ta'kidlaydi Islom Karimov, - aholining siyosiy faolligini kuchaytirish, jamiyatda manfaatlar va qarama-qarshi kuchlar o'rtasida muvozanatni ta'minlaydigan kuchli mexanizmlarni shakllantirish zarur.

O'zbekistonning umumiy va yagona Vatan ekanligini tushunish, davlat tilini o'rganish, hurmat qilish hissining uyg'unligi istiqbolga sodiqlik, mustaqillikni mustahkamlash va milliy mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga o'z hissasini qo'shishiga intilish kabilarning mohiyati va

²³ Yusupov E. Istiqbol yo'lida.-T. “Fan”, 1996. 104-b.

mazmunini tashkil etadigan jihatlarini o'zida aks ettiradi. Shu bilan birga, unda kishilarning madaniy-milliy merosni asrab avaylash, jamiyatning madaniy-iqtisodiy kamolotiga intilish, millatparastlik va millatchilikka qarshi kurash, etnik munosabatlarda umuminsoniylikning ustuvorligi kabi tuyg'u va maqsadlar ham o'ziga xos tarzda namoyon bo'ladi. Bundan tashqari, milliy manfaatlar, ehtiyojlarning umumiy maqsadlarga bo'ysundirilganligi, milliy g'urur, milliy o'zlikni anglash jarayonlarining mamlakatning pirovard maqsadlariga xizmat qilishga yo'naltirilganligi, siyosiy institutlar, partiyalar, jamoat tashkilotlari hamkorligi, diniy qavmlarning o'zaro hamjihatligiga erishish ham demokratik jamiyatni shakllantirishda muhim o'rin tutadi.

XULOSA

Mustaqillik davrida O'zbekiston Respublikasining o'z istiqloq yo'li tanlashda, taraqqiyotning “o'zbek modeli”ni ilmiy falsafiy jihatdan har taraflama mustahkam asoslashda va jamiyat taraqqiyotini prognoz qilish ma'lum bir konseptual asarlar muhim metodologik asos vazifasini bajaradi. O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A. Karimovning “O'zbekistonning o'z istiqloq va taraqqiyot yo'li” asari ham mustaqillik dastlabki yillarida davlat mustaqilligimizni va tanlagan taraqqiyot yo'limizni ilmiy jihatdan asoslashda muhim konseptual manba sifatida foydalanildi.

Jamiyat hayotini tubdan isloh qilishda O'zbekistonda demokratik jamiyat qurishning barcha jabhalarida muayyan ilmiy-nazariy tamoyillarini yaratish ishlari olib borilmoqda va nazariyalar yaratilmoqda. Ilmiy izlanishlar, tadqiqotlar natijasida demokratik jamiyat barpo etishning qo'yidagi asosiy tamoyillari vujudga kelmoqda.

Birinchi, demokratik tamoyillar mamlakatdagi iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy va boshqa sohalardagi o'zgarishlarning iqtisodiy-ma'naviy jihatlarini uyg'unlashtiradigan uzluksiz jarayon sifatida o'z ifodasini topadi, ya'ni u barcha sohalardagi islohotlarning asosiy maqsadi bo'lgan inson kamolotini, manfaat va qadr-qimmatini ta'minlaydigan iqtisodiy-ma'naviy muhitni shakllantirish vazifalarini amalga oshirishdagi mezon sifatida muayyan ahamiyat kasb etadi.

Demokratik jamiyatning shakllanishi tabiiy jarayon. Mazkur jarayonda qo'yidagi yo'nalishlarni a) jamiyatdagi demokratik o'zgarishlarning islohotlar bilan hamohang uyg'unligi; b) ijtimoiy o'zgarishlarning kishilar ongida ob'ektiv in'ikos tarzida vujudga kelishi; v) aholining mutlaq ko'pchiligi uchun zaruriy iqtisodiy-ma'naviy ehtiyojga aylanishi; g) ijtimoiy ong, ya'ni psixologik va mafkuraviy tuyg'ularning uyg'unligi sifatida namoyon bo'lishini alohida ko'rsatish lozim.

Ikkinchi, bu tamoyillar demokratik jamiyat barpo etish jarayonida davlat va xalq qarshisida ko'ngdalang bo'lib qolgan muommolarning yechimlarini o'zida aks ettiradi hamda ularni hal etish uchun jamiyat a'zolarini birlashtirishga

xizmat qiladi. Bunda ko'p millatli mamlakatimizda, avvalo, milliy-etnik hamda diniy hamjihatlikni ta'minlash bilan bog'liq jihatlar muhim ahamiyatga ega. Ya'ni, mustaqillikni mustahkamlash va ijtimoiy barqarorlikning muttasilligi hamda davomiyligini ta'minlash uchun jamiyatning barcha qatlamlarini umummanfaat asosida jipslashtiradi. Fuqarolarning hamkorligini yangi darajaga ko'tarish omiliga aylanadi hamda milliy-etnik birliklar va diniy qavmlarning siyosiy hayotda muayyan partiya vakili tarzida emas, balki mamlakatning Konstitutsiyasida belgilab qo'yilgan tenglik tamoyili asosida, fuqaro sifatida ishtirok etishi uchun ma'naviy shart-sharoitlarning vujudga kelishiga yordam beradi.

Uchinchidan, O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish ehtiyoji mamlakat hamda fuqarolarni kelajakka da'vat qiladigan, taraqqiyotga undaydigan omillardan biri tarzida yuzaga keladi, kishilarni boshqarish vazifasini bajarayotgan siyosiy partiyalar, rahbar shaxslar aql-zakovati, salohiyatini o'zida ifodalaydi. Shu bilan birga Respublikamizning turli mintaqalarida yashaydigan aholi o'rtasida mahalliychilik, qarindosh-urug'chilik kabi sub'ektiv omillarning ustuvor bo'lib ketmasligiga, xilma-xil intilish hamda harakatlarni umumxalq va yagona vatan manfaatlarini yo'lida uyg'unlashtirishga yordam beradi.

To'rtinchidan, jamiyatda olib borilayotgan islohotlar va o'zgarishlarning asosiy maqsadi bo'lgan demokratik huquqiy davlat, fuqarolik jamiyati, qonunning ustuvorligi va umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik asosiy xususiyatlari bo'lgan tizimga intilishlarini umumlashtirish uchun imkon yaratadi.

Beshinchidan, mamlakatning ichki hayotini boshqarishning asosiy mezonlaridan biri bo'lish bilan birga, tashqi siyosatda davlatning salohiyatini ko'rsatadigan, uning jahon hamjamiyati va xalqaro maydondagi obro'-e'tiborini namoyon qiladigan ma'naviy qadriyat mezonlarini, inson huquqlari, fuqarolarning imkoniyatlari, umumbashariy muammolarni hal qilish istiqbollari qay tarzda amaliyotga aylanayotganligini bildiradigan omil bo'lib xizmat qiladi.

Albatta, bu tamoyillar o'z navbatida xilma-xil tarzda va turli shakllarda namoyon bo'ladi. Ijtimoiy jarayonlarning talabi va yo'nalishiga ko'ra, ularning biri

muayyan muddatga o'z ahamiyatini yaqqolroq namoyon qilishi ham mumkin. Ammo ularning uyg'unligi, uyg'onishlar jarayonidagi serqirraligini umumlashtirish ehtiyoji doimo saqlanib qoladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

I. Rasmiy xujjatlar, manbalar va O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A. Karimov asarlari:

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. T.: “O‘zbekiston”, 2016.
2. Karimov I.A. Barcha reja va dasturlarimiz vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi. - T.: “O‘zbekiston”, 2011..
3. Karimov I.A. Buyuk va muqaddassan mustaqil vatan. O‘zbekiston mustaqilligining 20 yilligiga bag‘ishlangan ma’ruza. - T.: “O‘zbekiston” , 2011.
4. Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo‘shma majlisidagi ma’ruza. 12 noyabr. – T.: “O‘zbekiston” , 2010. .
5. Karimov I.A. Adabiyotga e’tibor – ma’naviyatga, kelajakka e’tibor. - T.: “O‘zbekiston” , 2009. .
6. Karimov I.A. O‘zbekistonning 16 yillik taraqqiyot yo‘li
7. Karimov I.A. O‘zbekiston buyuk kelajak sari.
8. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q.
9. Karimov I.A. O‘zbekiston: Milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura I–jild T.: “O‘zbekiston”, 1996.
10. Karimov I.A. Bizdan ozod va obod vatan qolsin. II –jild.- T.: “O‘zbekiston” , 1996.
11. Karimov I.A. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. III –jild. - T.: “O‘zbekiston”, 1996.
12. Karimov I.A. Bunyodkorlik yo‘lidan. IV-jild. - T.: “O‘zbekiston” , 1996.
13. Karimov I.A. Yangicha fikrlash va ishlash davr talabi. V-jild. - T.: “O‘zbekiston”, 1997
14. Karimov I.A. Biz kelajagimizni o‘z qo‘limiz bilan quramiz. VII-jild. - T.: “O‘zbekiston” , 1998.
15. Karimov I.A. Ozod va obod vatan, erkin va farovon hayot - pirovard maqsadimiz. VIII-jild. - T.: “O‘zbekiston” , 2000.
16. Karimov I.A. Inson, uning huquq va erkinliklari oliy qadriyat. XIV- jild. - T.: “O‘zbekiston” , 2006. .

17. Karimov I.A. Jamiyatimizni erkinlashtirish, islohotlarni chuqurlashtirish, ma'naviyatimizni yuksaltirish va xalqimizning hayot darajasini oshirish-barcha ishlarimizning mezoni va maqsadidir. XV- jild. - T.: "O'zbekiston", 2007.

18. Karimov I.A. Bizning yo'limiz - demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va modernizatsiya jarayonlarini izchil davom ettirish yo'lidir. XX - jild. - T.: "O'zbekiston", 2012.

II. Monografiya, risola va o'quv qo'llanmalari:

- 2.1. Said Shermuxammedov: Mustaqillik – buyuk ne'mat. – T.; O'zbekiston, 1997, 52 bet; yangilanayotgan jamiyatda – yangilangan falsafa. – T.; Fan, 1994, 2,3 bet; Madaniyat va sivilizatsiya, - T.; Yozuvchi, 1996, 2,4 bet.)
- 2.2. Azizxo'jayeva A.A.. Davlatchilik va ma'naviyat. Toshkent.: "Sharq", 1997;
- 2.3. Ergashev. I Taraqqiyot falsafasi. - T.: Akademiya, 2000.
- 2.4. Jumayev R. Davlat va jamiyat. Demokratlashtirish yo'lida. - T.; Sharq, 1996.
- 2.5. Otamurodov S. Национальное и интернациональное воспитанию Т.: O'zbekiston, 1991.
- 2.6. Jalolov A. O'zbekiston: mustaqillik, ma'naviyat, mafkura. T.: O'zbekiston, 1994.

IV. Internet saytlari

[3.1. www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)

[3.2. www. uforum.uz](http://www.uforum.uz)

[3.3. www.gov.uz](http://www.gov.uz)

[3.4. www.xs.uz](http://www.xs.uz)

[3.5. www: mfa. uz.](http://www.mfa.uz)

[3.6. www.turkistonsarkor.uz](http://www.turkistonsarkor.uz)

[3.7. www. karimovfoundi.uz.](http://www.karimovfoundi.uz)

[3.8. www.info xs.uz.](http://www.info xs.uz)

[3.9. www.fikr.uz](http://www.fikr.uz)